

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Fil.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**ACHILOVA OZODA FARXODOVNA**

**YAPON VA O‘ZBEK IMPERATIV MAQOLLARINING  
PRAGMA-DISKURSIV XUSUSIYATLARI**

**10.00.06 - Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik  
va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**UDK: 811.521+512.133:81'36+81'37**

**Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Contents of the abstract of doctoral (DSc) dissertation**  
**Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации**

**Achilova Ozoda Farxodovna**

Yapon va o'zbek imperativ maqollarining pragma-diskursiv xususiyatlari.....5

**Achilova Ozoda Farkhodovna**

Pragma-discursive features of the Japanese and Uzbek imperative proverbs.....38

**Ачилова Озода Фарходовна**

Прагма-дискурсивные особенности японских и узбекских императивных пословиц.....74

**E'lon qilingan nashrlar ro'uxati**

List of published works

Список опубликованных работ.....79

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Fil.21.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**ACHILOVA OZODA FARXODOVNA**

**YAPON VA O‘ZBEK IMPERATIV MAQOLLARINING  
PRAGMA–DISKURSIV XUSUSIYATLARI**

**10.00.06 - Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik  
va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.DSc/Fil 522 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb sahifasida (www.tsuos.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Safarov Shaxriyor Safarovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Usmanova Shoir Rustamovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Siddikova Iroda Abduzuhurovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Mustafayeva Samida Toshmuhammedovna**  
filologiya fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.21.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 29 avgust soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100060, Toshkent, Amir Temur ko'chasi, 20-uy. Tel: (99871) 233-45-21; faks: (99871) 233-52-24; e-mail: info@tsuos.uz)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (97 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100060, Toshkent, Amir Temur ko'chasi, 20-uy. Tel: (99871) 233-45-21).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «30» iyul kuni tarqatildi.

(2025-yil «30» iyul dagi 97 raqamli restr bayonnomasi).



**A.M.Mannonov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
filologiya fanlari doktori, professor

**N.R.Ismatullayeva**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, filol.fan.b.fals.d. (PhD), dotsent

**X.Z.Alimova**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya  
fanlari doktori, professor

*Handwritten signature*

## **KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida maqollarning pragmatik, struktur-semantik, lingvomadaniy va kognitiv xususiyatlari, maqolning boshqa paremiologik birliklar bilan aloqadorligi hamda ularning nutqda faollashuviga oid tadqiqotlar doirasini kengaytirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Ushbu sohadagi izlanishlarning dolzarbligi insonlarning o‘zaro munosabatlari tizimini aniqlash va dialogik nutq jarayonida kommunikativ maqsadlarga erishishga imkon yaratilishi bilan belgilanadi.

Dunyo tilshunosligida imperativ mazmundagi harakatga undovchi nutqiy aktlarning maqollar vositasida voqelanishida nutq samaradorligini ta’minlovchi unsurlar, imperativ mazmuni hosil qiluvchi birliklar va omillar, ularning nutqdagi o‘rni asosida qiyoslanayotgan lingvojamoa vakillarining falsafiy, madaniy dunyoqarashlarini voqelanishiga oid muammolar tadqiqi alohida e’tiborni jalb qilib kelmoqda. Shu bilan birga, maqollarning muloqot diskursida faollashuvining pragmatik xususiyatlari va harakatga undash mazmunning lisoniy va nolisoniy omillar asosida shakllanishi borasida chuqur tadqiq etilishi joiz bo‘lgan jihatlar ham yo‘q emas. Shu ma’noda imperativ mazmundagi maqollarning pragma-diskursiv xususiyatlarini ochib berish bugungi tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

O‘zbek tilshunosligida maqollarni qiyosiy o‘rganish o‘ziga xos boy an’analarga ega bo‘lib, paremiologiyaning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Ushbu soha tadqiqi nafaqat filologiya, balki pragmalingvistika, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik singari yo‘nalishlarning bir-biriga bog‘liq qator masalalarini oydinlashtirishga imkon beradi. O‘zbekistondagi keng miqyosli islohotlar davrida mamlakatimizning Yaponiya bilan hamkorlik aloqalari yangi bosqichga ko‘tarildi. Ayniqsa, ikki mamlakat orasida ilm-fan, ta’lim va madaniyat sohasidagi munosabatlar rivojlanib bormoqda. Binobarin, o‘zbek va yapon xalqlarining mentaliteti, milliy tafakkuri, yashash tarzi, urf-odatlar hamda axloqiy qarashlari yorqin aks etgan xalq maqollarini qiyosiy o‘rganish madaniy robitalarni yanada mustahkamlashga muayyan hissa qo‘shadi. Hozirga qadar yapon va o‘zbek tilshunosligida imperativ maqollarning pragmatik hamda diskursiv maqomi, ularni nutqda faollashtiruvchi lingvistik va ekstralingvistik omillari alohida tadqiqot obyekt sifatida o‘rganilmagan. Demak, maqollarning pragma-diskursiv tadqiqiga doir fundamental tadqiqotlarning yo‘qligi, mazkur mavzuni atroflicha o‘rganishni taqozo etadi. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “... ilmiy tadqiqot va innovasiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy hamda innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish”<sup>1</sup> masalalarining ustuvor strategik yo‘nalish sifatida belgilab qo‘yilishi tilshunoslik sohasidagi ilmiy izlanishlarni ham yangi bosqichga olib chiqdi. Bu borada yapon va o‘zbek maqollarining muloqot jarayonidagi pragmatik hamda diskursiv maqomini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. – Xalq so‘zi, 2017-yil 8-fevral. – № 28 (6722).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “I. Axborotlashgan jamiyat demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi** <sup>2</sup>. Maqollarning struktur-semantik, lingvomadaniy, kognitiv va pragmatik xususiyatlariga oid tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassasalarida, jumladan, Tokyo universiteti (Yaponiya), Tenri universiteti (Yaponiya), Indiana universiteti (AQSh), Oksford universiteti (Buyuk Britaniya), Istanbul universiteti (Turkiya), Praga universiteti (Chexiya), Moskva davlat universiteti (Rossiya), shuningdek, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Toshkent davlat pedagogika universiteti, Buxoro davlat universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida olib borilmoqda.

Jahon tilshunosligida maqollarni o‘rganish doirasidagi tadqiqotlar asosida quyidagi ilmiy umunlashma natijalarga erishilgan: maqollar psixologik nuqtayi nazardan tahlil qilingan (Indiana Universiteti, AQSh), maqollarning sotsiopragmatik jihatlari o‘rganilgan (Tokyo universiteti, Yaponiya), buyruq shaklidagi maqollarning axloqiy va tarbiyaviy jihatlari tadqiq etilgan (Praga universiteti, Chexiya), maqollarning semantik hamda struktur xususiyatlari tavsiflangan (Oksford universiteti, Buyuk Britaniya), turli tillardagi maqollarning milliy-madaniy jihatlari qiyosan o‘rganilgan (Moskva davlat universiteti), maqollarning badiiy-estetik jihatlari va vazifalari ilmiy yoritilgan (Istanbul universiteti, Turkiya), maqollar orqali xalqning milliy mentalitetiga oid o‘ziga xos xususiyatlar oydinlashtirilgan (Tenri universiteti, Yaponiya), maqollarning tarbiyaviy va axloqiy jihatlari o‘rganilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti), maqollarning lingvomadaniy xususiyatlariga bag‘ishlangan tadqiqotlar amalga oshirilgan (O‘zbekiston Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti), maqolning yondosh hodisalarga munosabatini aniqlanib, shu asosda uning lisoniy mavqeyi belgilangan,

---

<sup>2</sup> Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi <https://cir.nii.ac.jp/>; <https://www.edworld.ru/>; <https://ut.ac.ir/fa/>; <http://www.tsuos.uz/>; <http://www.samdchti.uz/>; <https://www.ub.edu/web/portal/es/>; <https://ci.nii.ac.jp/d/search/>; <https://www.uaa.mx/portal/>; <https://www.upenn.edu/>; <https://dialnet.unirioja.es/servlet/articulo?codigo=3086103>, <https://www.uzswlu.uz/>; <http://www.tsutmb.ru> [udep.edu.pe/hoy/2016/la-metafora-como-fenomeno-cognitivo-estructura-nuestro-pensamiento-y-actuar/](http://www.udep.edu.pe/hoy/2016/la-metafora-como-fenomeno-cognitivo-estructura-nuestro-pensamiento-y-actuar/); [www.navoiyuni.uz](http://www.navoiyuni.uz) va boshqa manbalar asosida tayyorlandi.

maqol paydo bo'lishining intralingvistik va ekstralingvistik omillari hamda pragmatik xususiyatlari tizimli ravishda tahlilga tortilgan (Buxoro davlat universiteti).

Bugungi kunga kelib, jahon tilshunosligida maqollarning o'ziga xos lingvistik jihatlariga doir bir qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda: maqollarni lingvokulturologik, lingvopragmatik, kognitiv aspektda tadqiq etish; muayyan tildagi maqollarni boshqa qardosh va qardosh bo'lmagan tillardagi maqollar bilan qiyosiy-tipologik o'rganish; maqollarni psixologik nuqtayi nazardan tahlilga tortish; maqollarni didaktik va metodik maqsadlarda tavsiflash, maqollarning lingvistik asoslari va pragmatik xususiyatlarini aniqlash.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Tilshunoslikda maqollarga oid ilmiy izlanishlar doirasida xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan salmoqli natijalarga erishilgan. Xususan, yapon tilshunosligida turg'un iboralarini tizimli tasniflash, maqollarning izohli lug'atlarini tartiblash, maqollarnig sodda va qo'shma gapli tuzilmalari, maqollar tarkibida qo'sh hierogliflarning ishtiroki hamda yapon va ingliz maqollarining milliy-madaniy xususiyatlarini chog'ishtirish bo'yicha <sup>3</sup> qator tadqiqotlar amalga oshirilgan.

An'anaviy tilshunoslikda maqollar struktur-semantik jihatdan o'rganilib, ularning leksik tarkibi, sintaktik tuzilishi, variantlari, shuningdek, ma'noviy-uslubiy xususiyatlariga e'tibor qaratiladi. Jumladan, Ye.I.Seliverstova, N.M.Halilova, A.R.Mustafina, N.V.Prekina va boshqa tilshunoslarining ishlarida maqollarning strukturaviy, semantik va semiotik xususiyatlari tadqiq etilgan <sup>4</sup>. O'zbek tilshunosligida maqollarning struktur-semantik va funksiyonal xususiyatlariga X.Abdurahmonov, M.Sadriddinova, B.Jo'rayeva, I.Mirzaaliyevlarning ishlarida e'tibor qaratilgan<sup>5</sup>.

Zamonaviy antroposentrik tilshunoslikda maqollar lingvomadaniyatshunoslik, kognitiv tilshunoslik hamda kommunikativ-pragmatik aspektlarda tadqiq etilganini kuzatish mumkin. Rus lingvomadaniyatshunosligida O.A.Dmitriyeva, N.N.Semenenko, I.B.Rusakova <sup>6</sup> kabi tadqiqotchilarning izlanishlarida maqol va

---

<sup>3</sup>石田プリシラ「動詞慣用句の意味的固定性を計る方法」『国語学』国語学会、2022年、- 42-56頁、奥津文夫「日英ことわざ比較文化」大修館書店、2020年；土屋智行「日本語定型表現の体系的分類に向けて一特に辞書記述に基づく慣用表現とことわざの分析を中心に」『言語科学論集』2009年、- 15頁；宮地裕「慣用句の周辺一連語・ことわざ・複合語一」『日本語学』1985年、- 62-75頁；舛山洋介「慣用句の体系的分類：隠喩・換喩・提喩に基づく慣用的意味の成立を中心に」『名古屋大学国語国文』80、名古屋大学国語国文学会、1997年、- 29-43頁。

<sup>4</sup> Селиверстова Е.И. Русская пословица в паремиологическом пространстве: стабильность и вариативность: лингвистический аспект: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – СПб, 2019. – 47 с.; Халилова Н.М. Структурно-семантическая характеристика аварских пословиц и поговорок: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Махачкала, 2010. – 24 с.; Мустафина А.Р. Синтаксическое сжатие: структура, семантика, иллокуция (на материале английских пословиц): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Уфа-2013 – 24 с.; Прекина Н.В. Градуальная семантика русских пословиц: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., - 2005. – 22 с.

<sup>5</sup> Абдурахмонов Х. Синтаксические особенности узбекских народных пословиц: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент: АН УзССР, 1964. – 18 с.; Абдурахмонов Х. Особенности синтаксиса узбекского устного народного творчества: Автореф. дис. ... докт. филол. наук. – Ташкент, 1977. – 48 с.; Садриддинова М. Лексика узбекских пословиц и поговорок: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1985. – 18 с.; Жўраева Б. Мақолларнинг лисоний мавқеи ва маъновий услубий қўлланилиши: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2002. – 136 б.; Мирзаалиев И.М. Қадимги туркий мақоллар семантикаси ва стилистикаси (“Девону луғати-т-турк” материали мисолида): Филол. фан. фалс. док (PhD)...дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – 48 б.

<sup>6</sup> Дмитриева О.А. Культурно-языковые характеристики пословиц и афоризмов: На материале фр. и рус. яз.: Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1997. – 189 с.; Семененко Н.Н. Лингвокультурологическое описание

matallarning milliy-madaniy xususiyatlari, turli konseptlarning maqollar vositasida ifodalanishi masalalari o‘rganilgan.

O‘zbek lingvomadayatshunosligi yo‘nalishida ham bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, D.A.Tosheva, Sh.Qalandarov, G.Komilova va Z. Muqimovalarning ilmiy izlanishlarida<sup>7</sup> maqollar vositasida milliy qadriyat, urf-odat, an‘analari va ijtimoiy munosabatlarning ifodalanish darajasi ochib berilgan.

P.Bakirov, M.Temirova, O.Uralova va Da Zhenxinlarning tadqiqotlarida maqollar qardosh va qardosh bo‘lmagan tillar bilan chog‘ishtirilib, ulardagi universalialar va farqli jihatlar ochib berilgan bo‘lsa, G.Ergasheva va Z. Djurayevaning ishlarida<sup>8</sup> maqollarning gender jihatlariga e‘tibor qaratilgan.

Tilshunoslikda maqollarni o‘rganishga oid pragma-diskursiv yondashuvlar so‘nggi yillarda tadqiqotchilarning e‘tiborini tortganini kuzatish mumkin. Bugungi kunda qator tilshunoslar tomonidan pragmalingvistik yondashuv asoslari ishlab chiqilmoqda. Maqollarga pragma-diskursiv asosda yondashgan xorijlik tadqiqotchilardan G.Ya.Permiyakov, A.M.Gutov, L.A.Gutova, N.Barlin, Ye.V.Markelova, O.B.Abakumova, L.A.Djelalova, shuningdek, 穴田義孝 (Yoshiyuki Anada), 糀山洋介 (Yosuke Momiyama), 宮地裕 (Xiroshi Miyaji)<sup>9</sup> kabi yapon olimlarining ishlarini e‘tirof etish mumkin. O‘zbek tilshunosligida maqollarga nisbatan lingvopragmatik yondashuvlarni N.Abdullayeva hamda B.Jo‘rayevalarning

---

структуры и семантики паремий: Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1997. – 191 с.; Русакова И.Б. Концепты «счастье» - «несчастье» в лингвокультурном содержании русских пословиц: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2007. – 24 с.

<sup>7</sup> Тошева Д.А. Зооним компонентли мақолларнинг лингвокультурологик хусусиятлари: Филол. фан. б. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2017.– 24 б.; Қаландаров Ш.Ш. Ўзбек лингвомаданий муҳитида халқ мақоллари эвфемизацияси. Филол. фан. б. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Фарғона, 2019. – 49 б.; Комилова Г. Ўзбек тилидаги мақолларнинг аксиолингвистик таҳлили. Филол. фан. фалс. док. (PhD)... дисс. автореф. – Тошкент, 2022. – 50 б.; Muqimova Z. R. Lingvomadaniy kodlarning olamning lisoniy manzarasidagi o‘rni (o‘zbek tili barqaror birliklari misolida): Filol. fan. dok.(DSc) ... diss. – Toshkent, 2025. – 237 b.

<sup>8</sup> Бакиров П. Номинацентрические пословицы в разносистемных языках (на материале русского, узбекского и казахского языков): Дисс... докт. филол. наук. – Ташкент, 2007. – 287 с.; Темирова М. Ўзбек ва киргиз халқ мақоллари типологияси: Филол. фан. б. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2018. – 166 б.; Уралова О.П. Инглиз ва ўзбек тилларида “оила” бош лексемали мақоллар семантикаси ва структураси: Филол. фан. б. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. – Самарқанд, 2021. – 144 б.; Zhenxin Da (达震鑫) O‘zbekcha va xitoycha maqollarning lingvistik tadqiqi: Filol. fan. b. fals. d-ri (PhD) ... diss. avtoref. – Toshkent, 2023. – 50 b.; Эргашева Г. Инглиз ва ўзбек тиллари фразеологизм ва паремияларида гендер аспектининг қиёсий-типологик тадқиқи. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2011. – 164 б.; Djurayeva Z. R. Turli tizimli tillar paremiologik fondida gender konseptosferasini ifodalash (rus va o‘zbek tillari misolida): Filol. fan. dok... DSc) diss. avtoref. – Vuxoro, 2024.

<sup>9</sup> Пермяков Г.Л. От поговорки до сказки. – М.: Наука, 1970. – С. 215-120.; Гутова Л.А. «Пословица и нарративный контекст» // Вестник Дагестанского НЦ РАН. – Махачкала, 2006. – С. 65.; А.М.Гутов. Этюды о кавказском эгикеге. – Нальчик: Эльбрус, 1998. – 124 с.; Барли Н. Структурный подход к пословице и максиме.// Паремииологический сборник. – М.: Наука, 1984. – С. 120-128; Маркелова Е. В. Когнитивно-семантическая структура имен деятельности (на материале русских пословиц о труде и лени): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Томск, 2004. – 32 с.; Абакумова О.Б. Пословичные концепты в паремическом дискурсе: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Орел, 2013. – 46 с.; Джелалова Л.А. Русские пословицы: структурно-семантический и коммуникативно-прагматический аспекты: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Волгоград, 2022. – 37 с.; 穴田義孝「ことわざ社会心理学」明治大学社会科学研究所、2006年、47頁； 糀山洋介「慣用句の体系的分類：隠喩・換喩・提喩に基づく慣用的意味の成立を中心に」『名古屋大学国語国文』、名古屋大学国語国文学会、1997年、29-43頁； 宮地裕「慣用句の周辺—連語・ことわざ・複合語—」『日本語学』、明治書院、1985年 62-75頁.

tadqiqotlarida<sup>10</sup> kuzatish mumkin. Mazkur tadqiqotlarda maqollarga muloqotning konkret ijtimoiy kontekstida murojaat qilinishi va ularning pragma-diskursiv birlik sifatida nutqda muhim kommunikativ funksiyani bajarishi alohida uqtirilgan.

Bevosita imperativ maqollarning tadqiqiga bag'ishlangan ishlarga to'xtaladigan bo'lsak, bu borada ham muayyan izlanishlar amalga oshirilganini ko'rish mumkin. Chunonchi, A.N.Ramazanovning tadqiqotida ingliz maqollaridagi nutq aktlarining tarkibi va nutq aktlari vositasida harakatga undash, ularning turli darajadagi turtki berish xususiyatlari, L.M.Gutovning ishida imperativ maqollarning mavzuiy guruhlari, semantik maydoni va etnolingvistik xususiyatlari tadqiq etilgan. Yapon tilidagi imperativ semantika va uning ifodalanishi masalasi L.Yu.Xronopulning tadqiqotida o'rganilgan<sup>11</sup>.

Ko'rinadiki, bugungi kunda nutqda imperativlikning ifodalanishi masalasi bo'yicha ayrim nazariy xulosalar berilgan bo'lsa-da, yapon va o'zbek maqollarida imperativlikning pragma-diskursiv xususiyatlari maxsus tadqiq etilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutining "Zamonaviy yapon filologiyasining dolzarb muommolari va uni o'qitish metodikasi" mavzusidagi ilmiy tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** yapon va o'zbek tillaridagi imperativ maqollarning mohiyatini ochib berish, pragmatik va diskursiv xususiyatlarini yoritishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

yapon va o'zbek muloqot diskursida imperativ maqollarning pragmatik maqomini belgilash, kommunikativ va pragma-diskursiv xususiyatlarini tahlil qilish;

yapon va o'zbek tillaridagi maqollarda implisit va eksplisit imperativlikning nutqda ifodalanish usullarini ko'rsatib berish;

yapon va o'zbek tillaridagi imperativ maqollarning semantik va sintaktik tuzilishini yoritish;

imperativ maqollarni lingvomadaniy aspektida tahlil qilish orqali yapon va o'zbek milliy xarakterini ochib berish;

yapon tilidagi imperativ maqollarni o'zbek tiliga muqobillashtirishda tayaniladigan omillarni aniqlash va tillararo muqobillashtirish usullarini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida yapon va o'zbek tillaridagi harakatga undovchi nutqiy aktlar guruhiga mansub maqollar tanlab olingan. Imperativ maqollar tahlilida so'zlashuv va badiiy nutqqa xos misollarga murojaat qilingan.

---

<sup>10</sup> Абдуллаева Н.Э. Инглиз ва ўзбек халқ мақолларидаги градуонимик муносабатларнинг лингвопрагматик хусусиятлари: Филол. фан. б. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2019. – 174 б.; Жўраева Б.М. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари: Филол. фан. док. (DSc) ... дисс. – Самарқанд, 2019. – 251 б.

<sup>11</sup> Рамазанова А.Н. Побудительны й потенциал английских пословиц: Афтореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Уфа, 2005. – 24 с.; Гутова Л.М. Адыгские императивные пословицы и поговорки в сравнительном освещении: Дисс. ... канд. филол. наук. – Нальчик: РГБ, 2007. – 140 с.; Хронопуло Л.Ю. Императивная семантика и её выражения в современном японском языке: Дисс...канд. филол. наук. – СПб., 2007. – 171 с.

**Tadqiqotning predmetini** yapon va o‘zbek tillaridagi imperativ maqollarning pragmatik hamda diskursiv xususiyatlarini qiyosiy aspektda o‘rganish tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Ishda tavsiflash, tasniflash, differensiyalash, pragmatik va diskursiv, qiyosiy, semantik, komponent tahlil hamda statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

yapon va o‘zbek muloqot diskursida faollashadigan buyruq, ko‘rsatma yoki maslahat mazmunini ifodalovchi imperativ maqollarni tahlil qilish orqali ularning pragmatik vazifasi aniqlanib, bu jarayonda ushbu maqollarning semantik, grammatik va struktur xususiyatlari ochib berilgan, imperativ maqollar orqali amalga oshiriladigan kommunikativ maqsad, ularning jamiyatdagi sotsiopragsmatik vazifasi hamda muloqot diskursida namoyon bo‘ladigan milliy-madaniy va interfaol xususiyatlari ilmiy asoslangan;

yapon va o‘zbek maqollarida imperativlikning bevosita hamda bilvosita ifodalanish holatlari aniqlangan, nutqdagi implisitlikni yuzaga keltiruvchi lingvopragsmatik omillar tahlil qilinib, tadqiqot davomida o‘zbek tilidan farqli ravishda, yapon muloqot madaniyatida so‘zlovchining kommunikativ maqsadini eksplisit ifoda etish harakati cheklovlarga uchrashi, ya’ni ijtimoiy me’yorlar va xushmuomalalik tamoyillari natijasida imperativ mazmunning ko‘proq bilvosita shakllarda ifodalanishi ilmiy asosda isbotlab berilgan;

yapon va o‘zbek tillaridagi imperativ maqollarning semantik va sintaktik tuzilishi hamda qurilish modellari batafsil tavsiflangan, yapon maqollarining odatda qisqa jumla shaklida ifodalanganligi, ularda fe’li birikmalarning nutq vaziyatiga qarab ko‘pincha tushirib qoldirilishi aniqlangan hamda o‘zbek imperativ maqollarida buyruq ma’nosini ifodalovchi fe’l shakllari ishtirokida to‘liq jumla ko‘rinishida ifodalanishi dalillangan;

yapon va o‘zbek tillaridagi tarkibida fauna va flora, diniy e’tiqod hamda madaniy realiyalarni aks ettiruvchi lug‘avoy birliklar ishtirok etgan imperativ maqollar tahlil qilinib, ular yordamida yapon va o‘zbek xalqlarining milliy xarakteri, dunyoqarashi hamda mentalitetining o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan;

yapon tilidagi imperativ maqollarni o‘zbek tiliga muqobillashtirish jarayonida maqollarning individual tarkibiy elementlarini alohida-alohida tarjima qilish o‘rniga, ularning umumiy kontekst va nutqdagi mazmuniy yaxlitligini hisobga olish zarurligi va tillararo funksional ekvivalentlikni ta’minlashda semantik hamda pragmatik tafovutlarni inobatga olish jumlaning to‘liq va aniq muqobillashtirishni ta’minlashi isbotlangan, tarjimaning kognitiv-diskursiv mohiyatini inobatga oluvchi madaniyatlararo transfer usullari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilar bilan belgilanadi:

maqollarni pragma-diskursiv yondashuv asosida o‘rganish ularning nafaqat semantik mazmuni, balki kommunikativ maqsadi, ijtimoiy vazifasi, qolaversa, kontekstga bog‘liqligini ham ko‘rsatib beradi;

o‘zbek tilidagi maqollarning, asosan, fe’lning imperativ shakli bilan to‘liq jumla shaklida, yapon tilidagi maqollarning esa qisqa jumlar va harakatga undovchi fe’llarning qisqartma shaklida ifodalanishi asoslab berilgan;

maqollarning nutq jarayonida buyruq mazmunidan tashqari, maslahat, taklif, ogohlantirish, o'tinch va boshqa mazmuniy munosabatlar bilan birga qorishgan holda yuzaga chiqishi dalillangan;

tadqiqot natijalari asosida "Yapon muloqot matnida harakatga undovchi nutqiy aktlar" va "Yapon va o'zbek imperativ maqollarining pragma-diskursiv xususiyatlari" nomli monografiyalar, "Yaponcha-o'zbekcha sohaga oid atamalar va iboralar to'plami" nomli o'quv-uslubiy qo'llanma hamda 命令の意味を持つ和・ウズミニことわざ辞典 (Yaponcha-o'zbekcha imperativ maqollar to'plami) nomli lug'at tayyorlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** dissertatsiyada imperativ maqollarning pragmatik va diskursiv tahlili masalasi bo'yicha muammoning aniq qo'yilganligi, to'plangan materiallar tahlili orqali asosli ilmiy xulosalar chiqarilganligi, zamonaviy tilshunoslikka muvofiq yondashuvlardan foydalanilganligi, tanlangan tadqiqot usullari, ilmiy tadqiqot natijalarining dissertatsiya nazariy konsepsiyasiga mos kelishi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati yapon va o'zbek imperativ maqollarida uchraydigan harakatga undovchi nutqiy tuzilmalar masalasini pragmalingsvistika va diskursiv tahlil yo'nalishlari doirasida o'rganilishi, ularning muloqot jarayonida shaxslararo munosabatlarni tushunishga yordam berishi va tavsiflangan imperativlikning pragmasemantik tahlil usullari til doirasidagi boshqa turdagi nutqiy aktlarning pragmatik, diskursiv mohiyatini anglashga imkon yaratishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, undan oliy o'quv yurtlari magistratura bosqichining Lingvistika yo'nalishida "Kommunikativ tilshunoslik", "Madaniyatlararo muloqot", "Pragmalingsvistika", "Qiyosiy tilshunoslik" fanlari bo'yicha ma'ruza matnlari, darslik, o'quv qo'llanmalar yaratishda, shuningdek, filologiya yo'nalishi bakalavriat, magistratura va tayanch doktorantura (PhD) bosqichidagi izlanuvchilar uchun maxsus seminarlar tashkil qilishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Yapon va o'zbek imperativ maqollarining pragma-diskursiv xususiyatlari tadqiqi yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

yapon va o'zbek muloqot diskursida imperativ maqollardan foydalanishning samarali usullari hamda maqollarni tarjima qilish masalalari bo'yicha chiqarilgan xulosalardan Yevropa Ittifoqi tomonidan Erasmus + dasturining 2016-2018-yillarga mo'ljallangan 561624-YERR-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS+CBHEIMEP: "O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish" mavzusidagi innovatsion tadqiqotlar loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 10-sentyabr 1785/02-son ma'lumotnomasi). Muloqot diskursida imperativ maqollar orqali so'zlovchi munosabatining ifodalanishi bilan bog'liq natijalar nutq samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

buyruq mazmunidagi maqollarning diskursiv, pragmatik, kognitiv va sotsiolingsvistik jihatdan tahlil qilinishi borasida olingan natijalardan 2/24-4/7-690-son "English Access Microscholarship Program" mavzusidagi loyihada foydalanilgan

(Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 10-sentyabr 1786/02-son ma'lumotnomasi). Natijada pragma-diskursiv omillarning muloqot strategiyasiga ta'siri aniqlangan;

maqollar va ularning kundalik muloqotdagi ahamiyati haqidagi ma'lumotlardan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasi "Ma'rifat shu'lasi" ko'rsatuvining ssenariysida foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2024-yil 26-oktabr 01-07/292-son ma'lumotnomasi). Tadqiqot konseptiga bag'ishlangan tahliliy fikrlar va nazariy xulosalar yoshlarning kitobxonlik saviyasini oshirishga yordam berdi;

imperativ maqollarning bevosita va bilvosita mazmunda nutqiy akt ko'rinishida ifodalanishiga oid ma'lumotlardan Yaponiyaning Kawasaki shahridagi "WAGO" Co.LTD tashkilotida yapon tilini o'qitishda ilmiy manba sifatida foydalanilgan ("Wago" Co.LTD tashkilotining 2024-yil 13-dekabr 48-son ma'lumotnomasi). Tadqiqot ishidan olingan natijalar yapon tilini o'rganayotgan talabalarga muloqot jarayonida maqollar orqali buyruq mazmunini ifodalash haqidagi tushunchalarini kengaytirishga yordam bergan;

yapon va o'zbek dialogik nutqida hurmat va kamtarlik shaklida bevosita va bilvosita nutqiy akt ko'rinishida ifodalangan imperativ maqollarning qo'llanishi yuzasidan olingan natijalaridan Yaponiyaning Saitama shahridagi "YM" (VAI-EM) Co.LTD tashkilotida yapon tilini o'qitishda foydalanilgan ("YM" (VAI-EM) Co.LTD tashkilotining 2024-yil 24-dekabr 303-son ma'lumotnomasi). Natijada "Yapon tili" fani bo'yicha dars mashg'ulotlari materiallarining nazariy va amaliy jihatdan boyishiga erishilgan;

hayvonlar va qushlar nomi bilan bog'liq zoonim maqollarning nutqdagi funksional belgilarining ahamiyati haqidagi natijalaridan Qarshi davlat universitetida 2021-2023-yillarda amalga oshirilgan SUZ-800-21GR-381 "Reinforcing English Language competence at Karshi State University" mavzusidagi loyihada foydalanilgan (Qarshi davlat universitetining 2024-yil 3-fevral 03/155-son ma'lumotnomasi). Natijada yapon va o'zbek imperativ maqollarining lingvomadaniy hamda sotsiopragmatik aspektlari yoritilib, bu turdagi maqollarni tarjima jarayonida muqobillashtirishga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya natijalari 6 ta ilmiy-amaliy anjuman, jumladan, 3 ta respublika hamda 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan va aprobatsiyadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi yuzasidan jami 30 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shundan 2 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 15 ta maqola, ulardan 10 tasi respublika, 5 tasi xorijiy jurnallarda e'lon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat bo'lib, umumiy hajmi 217 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi, zarurati, uning maqsadi va vazifalari, ishning obyekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilib, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Imperativ maqollar tadqiqining nazariy asoslari”** deb nomlangan. Unda jahon va o‘zbek tilshunoslarining maqollarning nazariy masalalariga oid qarashlari, ularning diskurs, pragmatika hamda imperativlik tushunchalariga nisbatan bildirgan fikr-mulohazalari, imperativlikning nutqiy aktlar nazariyasidagi talqini, shuningdek, maqollarni tartiblash va tizimlashtirish masalalari tahlil qilingan.

Bobning **“Maqollarni tadqiq qilish yo‘nalishlari”** deb nomlangan birinchi faslida imperativlik tushunchasi, uning voqelanishi, hosil bo‘lish omillari, imperativ maqollar va ularning tadqiqi haqida mulohazalar bildirilgan.

Imperativlikka dastlab grammatik kategoriya sifatida yo‘ndashilgan bo‘lsa, keyinchalik bu hodisa semantik, pragmatik, hatto sotsiolingvistik aspektlarda tahlilga tortildi. Binobarin, imperativlikning nutqiy akt sifatida kommunikativ vazifalari va mazmun doirasi o‘rganila boshlandi. Demak, bugungi kunga kelib imperativlik nafaqat buyruq berish, balki ijtimoiy nutqiy akt sifatida talqin qilinadi. Shu bois zamonaviy tilshunoslikda harakatga undovchi nutqiy aktlarning talqiniga oid masalalar pragmalingvistika, lingvomadaniyatshunoslik hamda kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazardan tadqiqot obyektiga aylanmoqda. Pragmalingvistika qator tilshunoslar tomonidan tilni ichki tuzilishida emas, balki uni shaxs tomonidan qo‘llash ko‘lamini tasvirlashga intiladigan fan sifatida tavsiflanadi<sup>12</sup>. Imperativ tuzilmalarning pragmasemantik xususiyatlari ham pragmalingvistikaning tadqiq obyektidir.

Yuqorida qayd etilganlar asosida imperativlikning xalq maqollari bilan bevosita bog‘liq jihatlari namoyon bo‘ladi. Binobarin, maqollar ko‘p hollarda imperativ (ya’ni buyruq, maslahat, ko‘rsatma va maslahat berish kabi) mazmunda voqelanib, jamiyatda axloqiy, ijtimoiy, ma’naviy me’yorlarni targ‘ib qilish maqsadida nutqimizda faollashadi. Imperativ maqollar funksional, struktur va semantik xususiyatlariga ko‘ra xarakterlanishini ta’kidlash joiz. Ushbu turdagi maqollar tarkibidagi fe’llarning, odatda, buyruq shaklida ko‘rinish berishi o‘zgarimas qoida sifatida qabul qilinadi. Shuningdek, imperativ maqollar vositasida muloqot jarayonida suhbatdoshni ogohlikka chaqirish, ehtimoliy xatar yoki nizoni bartaraf etish va xushyorlikka da’vat etish kabilarga ishora qilinadi.

Odatda, tilshunoslikda maqollar “paremalar” deb ham yuritiladi. Bu o‘rinda biz ayrim tadqiqotlardagi maqolni “parema” deb atalish fikriga qo‘shilmaymiz. Chunonchi, parema keng tushuncha bo‘lib, u, odatda, idioma, ibora, matal va

---

<sup>12</sup> Сафаров Ш. С. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 71-106; Leech G. Principles of Pragmatics. – London and New York: Longman, 1986. –88 p.; Богданов В. В. Классификация речевых актов // Лингвистические аспекты языкового общения. – Калинин, 1989. – С. 25-37. Арутюнова Н. Д. Дискурс. БЭС Языкознание. В кн.: Лингвистическая энциклопедия. – М., 1990. – С. 130-137.

maqolmatal tipida birliklarni o‘z ichiga oladi. Zotan, “o‘z ma’nosida qo‘llanadigan parema ko‘cma ma’no kasb etib maqolga aylanadi”<sup>13</sup>.

Ma’lumki, tilshunoslikdagi dastlabki ishlarda maqollar struktur-semantik jihatdan o‘rganilib, ularning leksik tarkibi, sintaktik tuzilishi, variantlari, shuningdek, ma’noviy-uslubiy xususiyatlariga e’tibor qaratilgan. Antroposentrik tilshunoslikda maqollar lingvomadaniyatshunoslik, kognitiv tilshunoslik hamda kommunikativ-pragmatik aspektlarda tadqiq etilganini kuzatish mumkin. Maqollarni pragma-diskursiv yondashuv asosida o‘rganish so‘nggi yillarda tadqiqotchilarning e’tiborini torta boshladi. Zero, maqollarni pragma-diskursiv nuqtayi nazardan tahlilga tortish ularni nafaqat lisoniy muhitda, balki ijtimoiy va madaniy kontekstlarda ham chuqur o‘rganishga asos bo‘ladi.

Maqollarga, odatda, muloqotning konkret ijtimoiy kontekstida qo‘llash uchun murojaat qilinadi va ular pragma-diskursiv birlik sifatida nutqda muhim kommunikativ funksiyani amalga oshiradi. Xususan, interaktivlik, umumlashtirish va baholash kabi diskursiv xususiyatlar maqollar tahlilida chuqur semantik va pragmatik yondashuvlar uchun asos bo‘la oladi. Ya’ni, maqolning so‘zlovchi bilan tinglovchi orasidagi muloqotga xizmat qiluvchi interaktivlik xususiyati pragmatik nuqtayi nazaridan nutqiy aktlar nazariyasi bilan bog‘liq holda ko‘pincha illokutiv akt sifatida muloqotda faol rol o‘ynaydi. Shuningdek, maqollar universal xulosa chiqaradigan umumlashtiruvchanlik xususiyatiga ham ega bo‘lib, hayotiy tajriba asosida xalq donishmandligini ifoda etuvchi vosita sifatida shakllanadi. Diskursiv tahlil nuqtayi nazaridan ushbu xususiyat maqollarni umumiy kontekstda qo‘llash imkonini ham beradi.

Birinchi bobning ikkinchi fasli ***“Imperativlikning nutqiy aktlar nazariyasidagi talqini”*** deb atalgan. Unda harakatni bajarishga undashga yo‘naltirilgan nutqiy aktlar, xususan, buyruq, taqiq, ruxsat kabi imperativ mazmunga ega tuzilmalarning talqini va tasnifi haqida so‘z yuritiladi.

Muloqot matnida amalda bo‘lgan barcha turdagi nutqiy aktlar o‘ziga xos struktur ko‘rinishga ega bo‘lishi bilan bir vaqtda, muayyan mazmun va mohiyatni ham qamrab oladi. Ushbu mazmun va mohiyatni ochib berish hamda nutq intensiyasining voqelanishini ta’minlash uchun so‘zlovchi muhit ehtiyojiga ko‘ra nutqiy akt turlarining muvofiqini tanlash orqali ma’lum turdagi ma’lumotni suhbatdoshiga yetkazadi.

Imperativlik nutqiy akt sifatida talqin qilinarkan, uning lisoniy maqomini belgilash, pragmatik va diskursiv xususiyatlarini yoritish uchun birinchi navbatda, nutqiy aktlarning tasnifiy mezonlarini aniqlash zarur bo‘ladi. Ushbu sohadagi eng nufuzli va e’tirofqa sazovor bo‘lgan ishlar sifatida J.Ostin, J.Syorl, J.Lich<sup>14</sup> va boshqa tadqiqotchilarning nutqiy aktlarni tasniflashga oid ilmiy qarashlarini e’tirof etish o‘rinlidir. Nutqiy aktlar nazariyasining asoschisi J.Ostin ilk bor nutqiy aktlarni tasniflash g‘oyasini ilgari surdi<sup>15</sup>. Olimning tasnifi negizida ingliz tilidagi performativ

<sup>13</sup> Жўраева Б.М. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари: Филол. фан. док. (DSc) ... дисс. – Самарқанд, 2019. – Б. 208.

<sup>14</sup> Austin J. How to do things with words. In J.O.Urmston (Ed.). – Cambridge: CUP, 1962. – 66 p.; Leech G. Principles of Pragmatics. – London and New York, 1986. – 88 p.; Searle J. Indirect Speech Acts // Syntax and Semantics. Vol. 3. – New York: Academic Press, 1975. – P. 59-82.

<sup>15</sup> Austin J.L. How To Do Things With Words. – Oxford: Oxford Univ. Press., 1962; 2 nd ed., 1973. – 168 p.

fe'llar ro'yxati yotadi va ular muloqot paytida bayon qilinayotgan fikrlarning illokutiv kuchlarini batafsil izohlaydi. Bu tasnif bir necha marta haqli ravishda tanqidga uchradi. Xususan, J.Syorl nutqiy aktlarni illokutiv fe'llar bilan aralastirib yuborishni noto'g'ri deb hisoblaydi. Zero, nutqiy akt muloqotning voqeligidir, ma'lum bir tilning leksik tizimida mavjud bo'lgan illokutiv fe'llar esa, nutqiy aktlarning omili bo'lolmaydi<sup>16</sup>.

J.Ostin nazariyasida imperativlik ekzersitivlar guruhiga kiritilgan bo'lsa, J.Syorl va K.Allen kabi tadqiqotchilar buyruq, taqiq, ijozat, iltimos va shu kabi suhbatdoshni ma'lum bir harakatni amalga oshirishga ishora qiluvchi imperativ gaplarni direktiv nutqiy aktlar guruhiga kiritishgan<sup>17</sup>. Keyinchalik mazkur nutqiy aktlar preskriptivlar guruhiga ajratilib, ular farmoyish, buyruq, ko'rsatma va maslahat kabi pragmatik vazifalarni voqelantiruvchi harakatlar bilan tenglashtirilganini<sup>18</sup> ko'rish mumkin. J.Lichning fikriga ko'ra, imperativ mazmunidagi gaplar hamda iltimos va savol kabi nutqiy harakatlar kompitiv guruhiga mansubdir. Bu guruhda illokutiv maqsad ijtimoiy maqsadga munosib bo'lmaydi<sup>19</sup>.

Bizning fikrimizcha, yuqorida keltirilgan tasniflarning barchasi asosli Biroq harakat ijrosining amalga oshirilishini talab qiladigan nutqiy aktlar, xoh u buyruq, xoh savol bo'lsin, har qanday holatda ham nutq intentsiyasi harakat ijrosini ta'minlashga ishora qiladi. Shu bois yuqorida qayd etilgan turdagi jummalarni direktiv nutqiy aktlar sirasiga kiritish tarafdorimiz.

Biroq buyruq va savol mazmunidagi gaplarni bir guruh deb tasniflash fikri, tabiiyki, turli tanqidlarga uchraydi. Xususan, A.Vejbitskaya ularning ajralishi tarafdori ekanligini ma'lum qilgan edi<sup>20</sup>. Imperativ gaplar so'zlovchi, tinglovchi va uchinchi shaxslar o'rtasida munosabatni so'roq, darak va boshqa turdagi gaplarga qaraganda butunlay boshqacha tarzda belgilaydi va ko'p hollarda ish-harakatning bajaruvchisi adresatga to'g'ri kelganligi sababli, ikkinchi shaxs buyrug'idagi subyekt olmoshi odatda olib tashlanadi<sup>21</sup>.

Darhaqiqat, imperativ nutq suhbatdoshga kuchli ta'sir o'tkazishligi bilan ham ahamiyatlidir. Buyruq berish, tahdid solish, agressivlik va birovga azob berib rohatlanish kabi hissiy tuyg'ular shular jumlasidandir. Har qanday muloqot natijasida suhbatdoshga murojaat qilib, uning hissiy holatiga ta'sir qilish, uni mamnun qilish, xushomad qilish yoki aksincha, kamsitish, g'azablantirish kabi maqsadlar turadi. Bu turdagi his-tuyg'ularni ko'rsata olish genetik jihatdan insonga xosdir. Inson suhbatdosh ruhiyatiga ta'sir o'tkazuvchi buyruqomuz omillar asosida muloqotga kirishar ekan, bu borada o'ta ehtiyotkorlik va xushmuomalalik etiketiga amal qilish talab etiladi. Xususan, yapon muloqotida nutq ijrochisi suhbatdoshni ma'lum bir harakat ijrosini bajarishga undash jarayonida, birinchi navbatda, 「相手の気持ちに傷つか

<sup>16</sup> Searle J., Vanderveken D. Foundations of Illocutionary Logic. – Cambridge Univ. Press, 1985. – 180 p.

<sup>17</sup> Searle J. Indirect Speech Acts // Syntax and Semantics. Vol. 3. – New York: Academic Press, 1975. – P. 59-82.

<sup>18</sup> Беляева Е.И. Грамматика и прагматика побуждение: английский язык. – Воронеж: Изд-во ВГУ, 1992. – С.145.

<sup>19</sup> Гусев В.Ю. Типология специализированных глагольных форм императива: Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2005. – С. 33.

<sup>20</sup> Вежбицкая А. Речевые акты // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XVII. Теория речевых актов. – М.: Прогресс, 1986. – С. 95–108.

<sup>21</sup> Добрушина Н.Р. Наклонения и дискурсивный режим текста на примере употреблений частицы пусть / Исследования по теории грамматики. – М., 2008. – С.145–150.

ない」[Aite no kimochi ni kizutsukanai] (Suhbatdoshning ruhiyatiga salbiy ta'sir o'tkazmaslik) iborasiga imkon qadar amal qilishga intiladi. Demak, noo'rin jumlar va haqoratomuz iboralarni qo'llash, fikrni tushunarsiz bayon qilish kabi holatlardan chekinish shaxslar o'rtasida munosabatning samaradorligini ta'minlovchi omillardandir. Ushbu holatlar, asosan, imperativlik bilan bog'liq jarayonlar bo'lib, mazkur sohaning nihoyatda nozikligidan dalolat beradi.

Ko'rinadiki, pragmatik imperativ mazmundagi nutqiy aktlar talqiniga turlicha yondashadilar. Nutqiy aktlarning o'zaro munosabati va ularni tasniflash masalasi hozirga qadar tilshunoslar o'rtasida turlicha bahs-munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda.

Birinchi bobning uchinchi fasli ***“Imperativ maqollarni pragma-diskursiv aspektda tadqiq etishning ilmiy ahamiyati”***ni yoritishga qaratilgan. Imperativ mazmundagi maqollarga harakatga undovchi nutqiy aktlar sifatida qaraydigan bo'lsak, ularni nutqiy aktning eng muhim vositasi maqomida e'tirof etish lozim. Imperativlik, odatda, ma'lum kommunikativ vaziyatda faollashib, tinglovchini u yoki bu harakatni bajarishga yoki bajarmaslikka undaydi. Ammo buyruq mazmunida voqelangan bu turdagi nutq ko'rsatmasi, ayniqsa, maqol ko'rinishida voqelanganda uni qabul qilish, undalgan harakatni bajarish yoki aksincha, bajarmaslik adresat uchun majburiy bo'lmasdan, ko'pincha uning ixtiyorida qoladi. Umuman, imperativ maqollar samarali harakat yo'nalishini zohiran yoki botinan belgilab berish xususiyatiga ega bo'lib, nutqda illokutiv kuchning ta'sir tezligini oshishiga imkon beradi.

Imperativ maqollarning tarkibidagi fe'llar, odatda, buyruq shaklida namoyon bo'ladi va bu o'zgarimas qoida sifatida qabul qilinadi. Shuningdek, imperativ maqollar vositasida muloqot jarayonida suhbatdoshni ogohlikka chaqirish, ehtimoliy xatar yoki nizoni bartaraf etish va xushyorlikka da'vat etish kabilarga ishora qilinadi. Maqollarda ifodalanadigan nutqiy harakatning xususiyatlariga to'xtaladigan bo'lsak, ularda nutq illokutsiyasi umumlashtirilgandir. Odatda, maqollar oddiy jumladan farqli o'laroq, predikativ komponentlarning flektiv kategoriyalari ishtirokida nutq vaziyatini kontekstga moslashtira oladigan tabiatga egadir.

Diskursiv tahlil yordamida xalq maqollariga oid xususiyatlarni o'rganish til orqali qanday ijtimoiy va madaniy strukturalar, qadriyatlar va normativlar ifodalanayotganini tushunishga imkon beradi. Ushbu jihat esa, o'z navbatida, til va muloqotdagi ijtimoiy ta'sir, identifikatsiya va gender rolini o'rganishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Xalq maqollarida ko'pincha ijtimoiy qadriyatlar, urf-odatlar va jamiyat me'yorlari kabilar o'z ifodasini topadi. Muayyan davr hamda jamiyatdagi turli ijtimoiy tuzilmalar va qonuniyatlarni yoritish uchun esa diskursiv yondashuvga oydinlik kiritish muhim ahamiyatga ega.

Maqollar kommunikativ jarayonda shaxs tomonidan o'ylab topilgan ko'rsatmalar yoki uning shaxsiy fikrlari jamlanmasi asosida yuzaga kelmaydi, aksincha, ular umume'tirof etilgan ishhonchli qoida va asosli manba sifatida qabul qilinadi. Shu jihatdan, nutqqa nisbatan so'zlovchi mas'uliyatini yengillashtirish va uni javobgarlikdan ozoda etish xususiyatiga ko'ra maqollar muloqot ishtirokchilari

o‘rtasida kutilmagan kelishmovchiliklar va nizolarga chek qo‘yish xusuiyati bilan ham xarakterlanadi.

Quyidagi maqollar ishtirokidagi diskursiv tahlil qilish orqali ularning vazifalariga oydinlik kiritamiz:

Yapon tilida: *今は大変だけど、止まない雨はないから、いつかは良い日が来るさ*<sup>22</sup>。  
*Hozircha qiyin, lekin to‘xtamaydigan yomg‘ir yo‘q deyishadi, qachondir yorug‘ kunlar keladi.*

O‘zbek tilida: ***Odam so‘zlashib topishadi, yilqi kishnashib topishadi, Ziyodulla chavandoz! Shunday-shunday topishadi-da!*** (T.Murod. “Ot kishnagan oqshom”).

Keltirilgan kontekstdan har ikkala tilda ham so‘zlovchi adresatni ma’lum bir harakatni amalga oshirishga undashi va undan oldin esa uni bu holatga ishontirishga bo‘lgan harakati ko‘rinib turibdi.

Maqollar nafaqat kundalik odatiy muloqot muhitida, balki keng auditoriyada ommaviy tinglovchilarga qarata ijro etilgan muloqot diskursida ham keng kuzatiladi. Masalan, yig‘ilishlar, mitinglar, seminar va anjumanlar, shuningdek mashhur allomalarning badiiy, diniy va siyosiy ma’ruzalarida ham nutq bezagi sifatida maqollarga murojaat qilish holatlari kuzatiladi. Masalan, Yaponiya bosh vaziri Fumio Kishidaning Vakillar palatasining yalpi majlisida so‘zlagan siyosiy nutqida maqollardan quyidagicha foydalanganini ko‘rish mumkin:

『『早く行きたければ 1 人で進め。遠くまで行きたければ、皆で進め』ということわざを引用し、『仲間とならばもっと遠く、はるかに遠くまで行くことができます』『私は、日本人の底力を信じています』と語った。』<sup>23</sup>。

**“Tez ketmoqchi bo‘lsang, yolg‘iz bor, uzoqqa ketmoqchi bo‘lsang, birga bor”** degan maqolni keltirib, **“Do‘stlar bilan uzoqroqqa, ancha uzoqqa borishimiz mumkin. Men yapon xalqining o‘ziga xos kuchiga ishonaman”** dedi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston mustaqilligining 26 yilligiga bag‘ishlangan marosimdagi nutqida ham quyidagi maqollarni qo‘llanilganini kuzatish mumkin:

1. **“Xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy bo‘ladi”**<sup>24</sup>.
2. **“Imkoniyatdan samarali foydalanish uchun yerni haqiqiy dehqonga, fermer bo‘laman, deb ko‘zi yonib turgan mirishkorlarga berish kerak. Dehqon boy bo‘lsa, davlat boy bo‘ladi”**, dedi Prezidentimiz<sup>25</sup>.

Keng jamoa yoki yirik auditoriya vakillarini yoppasiga ma’lum bir harakatni bajarishga undash yoki ko‘rsatma berish jarayonida muloqot etiketi, so‘zlar va iboralar tanlovidagi mahorat muhim hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, ko‘p hollarda bu turdagi nutqning samaradorligini ta‘minlashda maqollar yordamga keladi.

<sup>22</sup> <https://kerokero.green/yamanaiame>

<sup>23</sup> [https://www.huffingtonpost.jp/entry/story\\_jp\\_615ff3f5e4b06a986bcde766](https://www.huffingtonpost.jp/entry/story_jp_615ff3f5e4b06a986bcde766). 衆院本会議で所信表明演説をする岸田文雄首相 = 2021 年 10 月 8 日.

<sup>24</sup> 1 sentabr, 2017-yil; Manba: <https://www.gazeta.uz/oz/2017/09/01/nutq>.

<sup>25</sup> 2016-yil 15-dekabr kuni xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining navbatdan tashqari sessiyasi.

Qolaversa, maqollarning muloqot diskursida yashirin (implisit) tarzda voqelanishi ehtimoliy qarama-qarshiliklarni bartaraf etish imkonini beradi.

Xullas, muloqot diskursida inson ruhiyati bilan bog‘liq munozarali vaziyatlar, ko‘p hollarda, xulosa chiqarish uchun dalil bo‘lib xizmat qiladigan majoziy maqollarga murojaat qilinishi birmuncha samarali kechadi. Shunday qilib, maqol muloqot diskursida bir vaqtning o‘zida ham nutqiy akt, ham harakatga undashning samarali vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Birinchi bobning keyingi fasli **“Maqollarni tizimlashtirish va tartiblash masalalari”**ga bag‘ishlangan. “Maqollar so‘zlar soni, gapning grammatik to‘liqligi, so‘z birikmalarining morfologik, konstruktiv va kommunikativ turlari hamda urg‘ularning xarakteri kabi bir qator xususiyatlar va ularning turli kombinatsiyalariga ko‘ra farqlanadi. Shuningdek, maqollarni guruhlashtirish yoki ularni tasniflash uni tuzuvchi qarori asosida belgilanishi mumkin”<sup>26</sup>.

Maqollarni tizimlashtirishda ularni alifbo tartibida joylash va mavzuiy guruhlariga ajratish usulini boshqa usullarga nisbatan nisbatan keng tarqalgan deyish mumkin. Chunonchi, T.Mirzayev, A.Musoqulov, B.Sarimsoqov, K.Imomov, N.Komilov va H.Suvonqulova tomonidan tuzilgan “O‘zbek xalq maqollari” to‘plamida maqollar tematik tarzda jamlanib, ular alifbo tartibida tizimlashtirilganligini ko‘rish mumkin<sup>27</sup>.

Biz G.L.Permyakov aniqlagan beshta tur orasida tematik va alifbo tartibidagi tizimlash turini qo‘llab-quvvatlasak-da, aslida, maqollarni har qanday tizimlashtirish o‘zining ijobiy va salbiy tomonlariga egadir. Xususan, paremiyalogiya sohasi bilan qiyosiy shug‘ullangan har bir izlanuvchi ularda muqobil variantlarni topish yoki hech bo‘lmaganda ularga yaqin ma‘nodosh iboralarni aniqlash qanchalik mushkul ish ekanligini his etadi.

Yapon maqollariga murojaat qiladigan bo‘lsak, bir xil mazmunga ega bo‘lgan maqollar o‘zgacha qiyofada butunlay boshqa bo‘limlarda uchrashi kuzatiladi. Masalan, 蟻の甘きにつくが如し [ari no amakini tsukuga gotoshi] maqoli o‘zbek tilida **“Chumoli shirinlikka to‘planganidek”** deb tarjima qilinib, odamlar xuddi chumolilar shirinlikka to‘plangani singari, foyda keladigan joylarga talpinishiga ishoradir. Manbalarga murojaat qiladigan bo‘lsak, mazkur maqol shirin yeguliklarga oid maqollar guruhida ham, hashoratlarga oid maqollar guruhida ham uchraydi. Shuningdek, 老いたる馬は道を忘れず [oitaru umaha michi wo wasurezu], ya’ni **“Keksa ot yo‘lini hech qachon unutmaydi”** maqoli otga ta’rif berish bilan birga, keksalarning donoligiga ham ishora qiladi. Bu holat, o‘z navbatida, nutq intentsiyasining yo‘nalishini aniqlashni murakkablashtirishi tabiiydir.

Umuman, maqollarni guruhlash va ularni turlarga ajratib tahlil qilish samarali usullardan hisoblanadi. Bu borada, avvalo, e’tibor qaratilayotgan materialni katta tematik guruhlariga ajratish, ya’ni ularni mavzulashtirish, keyingi bosqichda esa ularni kichik guruhlarda tizimlashtirish, ya’ni alifbo tartibida joylashtirish paremiyalogiya sohasini tadqiq qilishda ayrim qulayliklarni taqdim etadi.

Tadqiqotning **“Imperativlikning diskursda voqelanish usullari”** deb

<sup>26</sup> Пермяков Г.Л. Пословицы и поговорки народов востока. – М.: Наука, 1979. – С. 15, 127.

<sup>27</sup> O‘zbek xalq maqollari. Tuzuvchilar: T. Mirzayev, A. Musoqulov, B. Sarimsoqov. – Toshkent: Sharq, 2005, 2014.

nomlanuvchi ikkinchi bobida imperativ tuzilmalarning pragmatik va semantik belgilari, permissiv va proxhibitiv tuzilmalarning vazifalari, implisit va eksplisit imperativlikning ifodalanishi hamda yapon va o'zbek maqollarida imperativlikning voqelanish usullari atroflicha tavsiflangan.

Bobning birinchi faslida **“Imperativ tuzilmalarining pragmasemantik xususiyatlari”** haqida bahs yuritilgan. Nutqiy aktlar nazariyasida imperativ ma'nosining pragmatik jihatlari yoritilib, ularning semiotik talqiniga e'tibor qaratiladi. Ushbu nazariya doirasida kommunikativ vaziyat modeli turli jihatli va qator vazifalar aks topadigan hodisa sifatida qaralib, bajariladigan pragmatik vazifa semantik-pragmatik ko'rinishda tasvirlanadi<sup>28</sup>. Bizningcha, bu tarzdagi yondashuv imperativ qurilmalarning qo'llanish maqsadi borasida axborotga ega bo'lishdan tashqari, ularning ma'lum nutqiy aktlar vazifalarida faollashuvi, ruxsat vaziyati qatnashchilarining mavqeyi va istaklari, harakat bajarish imkoniyatlari kabi ijtimoiy-ruhiy holatlar to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishga imkon beradi.

Preskriptiv nutqiy aktlar ko'rsatma yoki buyruq berish harakati bilan bog'liq holda voqelanib, xohish-istak izhori modalligi doirasida turli ma'no ottenkalarini ifodalaydi. Ushbu ko'rinishdagi modallik asosida so'zlovchining subyekt va belgi o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatish istagi yotadi<sup>29</sup>. Imperativlik preskriptiv ma'nolar tizimining eng chuqur qatlamida “yashiringan” bo'ladi. Bu xildagi tavsifda buyuruvchi va ijrochi haqidagi ma'lumotlar imperativ tuzilmalarning semantik-pragmatik tasvirida qayd etiladi. Inkori va tasdiq ko'rinishidagi tavsiya 「しろ!」(bajar!) – yoki 「するな!」(bajarma!) undash vaziyatiga qadar ikki turdagi ma'lumotga asoslanadi:

- 1) tasdiqlovchi ma'lumot (ijrochi aytilgan harakatni bajaradi);
- 2) inkori ma'lumoti (ijrochi undalayotgan harakatni bajarmaydi).

Shuningdek, ushbu vaziyatda tavsiya ham ikki mazmunda ifoda topadi:

- 1) tasdiq tavsiyasi (“Bajarayotganingni davom et”);
- 2) taqiq tavsiyasi (“Bajarayotgan harakatingni to'xtat”).

Ko'rsatilgan tavsiyalarni ularning manbalari bilan birlashtiradigan bo'lsak, imperativ tuzilmalar to'rt guruhga ajralishini kuzatish mumkin<sup>30</sup>:

1. Inkori unsuriga ega bo'lmagan tuzilmalar. Masalan: “吸ってもいい – *Chekaver!*” tuzilmasi agarda tinglovchi shu paytda chekib turgan bo'lsa, “Chekishni davom etaver!” ruxsatini olgan bo'ladi. Qiyoslang:

「さあ、上がんなさい。午後になるとお兄さんも見えなからね。それまで食事をして、ひと休みをしなさい。」（高木敏子「ガラスのうさぎ」: 24）.

*Ichkariga kiraver. Kunning ikkinchi yarmida akang ham kelib qoladi. Ungacha ovqatlanib, biroz dam ol.*

<sup>28</sup> Падучева Е.В. Высказывание и его соотносительность с действительностью. – М.: Наука, 1985. – С. 89.

<sup>29</sup> Беляева Е.И. Модальность и прагматические аспекты директивных речевых актов в современном английском языке: Автореф. дисс. докт. филол. наук. – М., 1988. – С.15.

<sup>30</sup> Хронопуло Л.Ю. Императивная семантика и её выражения в современном японском языке: Дисс... канд. филол. наук. – СПб., 2007. – С. 171. 安達太郎, 命令のモダリティー (新本語文法選書). 東京くろしお出版, 2002年, – 42-77頁. 石川美紀子, 「命令に関する試論—語用論的条件と構文的条件との関係から—」, 2002年, – 103頁.

2. Inkor unsuri qatnashayotgan tuzilma. Masalan: “吸うな – *Chekma!*” “shu paytgacha qilmagan ishni bajarma” mazmunini ifoda etadi (Tinglovchi chekmagan edi bundan buyon ham chekmaslik tavsiyasini olmoqda). Qiyoslang: 「お母さんの心臓病まだ悪いのか。こまったねえ。でも、お父さんも、もうじき帰国できるだろうから、それまで、敏子が頑張ってくれよ。お母さんのことくれぐれも頼んだぞ！」と言って兄はノートと消しゴムをくれた。 (高木敏子「ガラスのうさぎ」: 25)

“*Onamning yurak xastaligi hali ham yomonmi? Nima qilsak ekan. Ammo otam ham tez orada uyga qaytishlari mumkin. Toshiko, ungacha sen qo‘lingdan kelganicha harakat qilaver, oyimni (bundan buyon) ham senga topshirdim*”, dedi akam va qo‘limga daftar bilan o‘chirg‘ichni tutqazdi”.

Ushbu misolda Toshiko harakatdan to‘xtamagani va bundan buyon ham to‘xtamaslikka undalayotganini kuzatish mumkin. Bu holatda nutq permissivlik shaklidagi qurilmadan tarkib topgan bo‘lsa-da, nutq intensiyasi taqiqdan boshqa narsa emas.

3. Inkor unsuri mavjud bo‘lgan boshqa holatda imperativ tuzilma “bu ishni qilma!” ma’nosini anglatishi mumkin. Ammo bu holatda tinglovchi ushbu harakatni bajarib turgan bo‘lishi kerak. Masalan: “*Chekma!*” nutqiy akti bu vaziyatda “Chekishni to‘xtat” mazmunini ifodalaydi. Qiyoslang:

1) 「こんなやつに関わるな。」(水星 茗「千の月の夢」: 174)

*Bunday odamlarga qo‘shilma!*

2) *Meni shoshiltirmanglar, nevara-chevaralarimni narigi ming yillikka o‘tqazib qo‘yay, ana undan keyin haydamasalarining ham o‘zim ketaman.* (S.Ahmad. “Qora ko‘z majnun”).

4. Inkor unsuri qatnashayotgan tuzilmalar ba’zan “buyurilgan harakatni boshla” mazmunini olishi mumkin. Biroq bunda tinglovchi tavsiyani eshitganiga qarab bu harakatga urinmayotgan bo‘lishi lozim. Qiyoslang:

1) 「*EE、何も言うな、黙っている。*」(樋口一葉「たけくらべ」: 250).

*Ee, hech nima dema. Jim tur.*

2) - *Kun chiqar Vatanim, mening Yaponiyam! Kechir, burchini o‘tolmagan badbaxt o‘g‘lingni kechir! Kechir!...* (S.Ahmad, “Qora ko‘z majnun”).

Umuman, imperativ tuzilmalar turli maqsadlarda qo‘llaniladi. Ammo ularning turli illokutiv mazmunda (buyruq, iltimos, maslahat, ruxsat, taqiq, rozilik va boshqalar) faollashuvida invariant xususiyatlarning mavjudligi seziladi. Bu, albatta, tavsiya qilish istagining umumiyliigi bilan bog‘liq. Shu bois nutqiy aktlar pragmasemantik xususiyatlarini imperativ tuzilmalarning asosiy semantik turlarini yoritish orqali aniqlash lozim. Zero, imperativlik preskriptiv ma’nolar tizimining eng chuqur qatlamida “yashiringan” bo‘ladi. Umuman, turli shakldagi imperativ tuzilmalarining pragmasemantik xususiyatlarini majmuaviy tarzda tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchi bobning ikkinchi faslida “*Implisit va eksplisit imperativlikning dialogik nutqda ifodalanishi*” tavsiflangan. Tadqiqotning ushbu faslida muloqot matnida implisit (yashirin) va eksplisit (oshkora) imperativlikning faollashuvi va uning xarakterli xususiyatlari tahlilga tortilgan. Gap mazmunining implisit yoki

eksplicit tarzda ifoda etilishi til birliklarining semantik tuzilishi va nutqni tashkil etish o'rtasidagi bog'liqlikning muhim xususiyatlaridan hisoblanadi. Odatda, axborot yoki muloqot maqsadining botiniy voqelanishi asosida suhbatdoshlar o'rtasida munosabatning sayqallanishi va kommunikantlararo hurmat-ehtiromning kuchayishi natijasida nutq samaradorligi mustahkamlanish holatlari ham kuzatiladi.

Eksplisitlik va implisitlikning matnda faollashuviga oid omillarning xarakterli jihatlari pragmatik nuqtayi nazaridan atroflicha tahlil qilinishni talab etadi. Biroq, sir emaski, tilga oid kognitiv-kommunikativ yondashuv nuqtayi nazaridan nutq umumiyatlarini o'rganish dolzarbligicha qolmoqda va bu o'z navbatida implisitlik va eksplisitlik hodisalarining yetarli darajada yoritilmaganligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, eksplisitlik – bu nutqda bevosita amalga oshirishdan iborat bo'lgan lisoniy belgilarning bevosita, aniq ifodalangan ma'nosi deyishimiz mumkin. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, eksplisitlik holatida so'zlovchining istagi oshkora tarzda ifodalanadi. Fikrimizni quyidagi misol vositasida quvvatlashga harakat qilamiz:

*Qani endi, uni hozir shu topda ko'rsam, o'sha ko'kimtir nur ichida bir ko'rsam. Hu o'sha cho'llarda chaqnagan ko'kimtir chaqin shu'lasida u haqda xayol sursam... Yoshlikni, biz ishlagan o'sha azamat qurilishlarni eslasam, birga orzu qilganimizcha yashasak...* (S.Ahmad. "Iqbol chiroqlari").

Berilgan matnda 4 ta istak gap qo'llangan bo'lib, istak ma'nosi "qani" modal so'zi, "-sa" qo'shimchasi bilan hosil bo'lgan. Istak ma'nosining ushbu vositalar bilan bevosita hosil qilinganligi uning oshkora ifodalanganini ko'rsatadi<sup>31</sup>.

Axborot uzatish usullaridan bo'lgan implisitlikning vazifasi yashirin xabar uzatishdir. Misollarga murojaat qilamiz:

*Ishqilib, shaharga qaytganida ko'nglida birgina istak hokim edi: **endi boshqacha yashamoq kerak.*** (M.Muhammad Do'st)

Ushbu qo'shma gapning "Endi boshqacha yashamoq kerak" komponenti ichki strukturasi "Endi boshqacha yashashni istayman" yashirin axboroti anglashiladi. Ushbu axborot qo'shma gapning oldingi komponentida qo'llangan birgina istak birikmasining mazmunini ochib berish, unga izoh berishga xizmat qilgan<sup>32</sup>.

Yapon muloqotida harakatga undovchi iboralarni bevosita amalda qo'llash suhbatdoshga nisbatan hurmatsizlikni ifodalashi bois, imperativ mazmunni yumshoqroq va nafis ohangda ijro etish maqsadida maxsus lisoniy birliklar va grammatik ko'rsatkichlardan o'rinli foydalanish usuli ancha keng tarqalgan. Quyidagi misollarda yapon tilida buyruqning turli shaklda qo'llanilishiga e'tibor qaratamiz:

1. 「今日は駄目です」と云って先生は苦笑した。

- 「愉快になれませんか」と私は気の毒そうに聞いた。(夏目漱石「こころ: 31-32).

- "Bugun imkonim yo'q", deya ustoz mahzun jilmaydi.

- "Kayfiyatingizni ko'tara olmaysizmi?", deb so'radim rahmim kelgandek.

<sup>31</sup> Кебайтули Г. Ўзбек тилида истак гапларнинг семантик-синтактик структураси ва прагматик хусусиятлари: Филол. фан. б. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2021. – Б. 109.

<sup>32</sup> Ko'rsatilgan manba, 109-bet.

2. -「明日までにレポートを出してください。」

*Ertagacha hisobotni topshiring!*

3. - さあ、来い！ (プログレッシブ和英中辞典第3版, 2002).

*Xo‘sh, kelaqol!*

Quyida o‘zbek tilida imperativ mazmunni turli ko‘rinishlardagi qo‘llanilishlarini ko‘rib chiqamiz. Kesimi birinchi shaxs birlikdagi buyruq-istak maylidagi fe‘llardan tashkil topgan gaplarda istak ma‘nosi buyruqqa nisbatan kuchliroq ifodalanishi seziladi. Masalan:

– *Endi menam ketay, – dedi Salima. – Borib, bolalarga ovqat qilay.* (S.Ahmad. “Qishdan qolgan qarg‘alar”).

Kesimi ikkinchi shaxs buyruq-istak maylidagi fe‘llardan tashkil topgan gaplarda esa, aksincha, istak semasi kuchsizlanadi. Masalan:

– *Darrov topib keling.* (S.Ahmad. “Bo‘ston”)

– *Kechikmanglar.* (S.Ahmad. “Seni izlab”)

Ammo uchinchi shaxs buyruq-istak maylidagi fe‘llarda ikki xil holat kuzatiladi. Ayrim gaplarda istakka nisbatan buyruq semasi kuchli ifodalanib, istak ma‘nosi esa kuchsizlanadi. Masalan:

– *Nega o‘zi kirmadi. – Bilmasam... O‘zi kirsin!* (S.Ahmad. “Kechikkan sevgi”)

– *Besh minutda shu yerda bo‘lsin!* (S.Ahmad. “Bo‘ston”)<sup>33</sup>.

Aytilganlar bilan birga, o‘zbek tilida imperativ mazmunidagi nutq samaradorligini ta‘minlash uchun xizmat qiladigan turli unsurlar mavjud. Ko‘p holatlarda har xil kirish iboralari, xususan, “iltimos”, “mumkin bo‘lsa”, “agar sizga qiyin bo‘lmasa” yoki ism va nomga urg‘u berish kabilar yordamida ifodalanishi mumkin.

Yapon muloqotida aksincha, kirish so‘zlarning aksariyat holatlarda gap oxiridan o‘rin olishi kuzatiladi. Biroq fe‘lning imperativlik xususiyatiga ega bo‘lmagan shakllardan foydalanish va jumlaning so‘roq gap tarzida voqelanishi orqali harakat ijrosiga undash holatlari har ikkala til uchun ham xususiyatlidir. Shu o‘rinda yapon tilida imperativ gaplar boshqa tillarga nisbatan kam uchrashini alohida takidlash lozim. So‘zlovchi atrofdegilarni o‘z manfaati uchun ma‘lum bir harakat ijrosini ta‘minlashga undashi yapon mentaliteti nuqtayi nazaridan suhbatdoshga nisbatan hurmatsizlik yoki xudbinlik hisoblanadi.

Aytilganlar bilan birga, yapon muloqotida nutq maqsadining eksplisit tarzda ifodalanishda ma‘lum bir cheklovlar mavjudligini ham aytib o‘tish joiz. Binobarin, yapon odob-axloq me‘yorlariga ko‘ra, muloqot chog‘ida har qanday maqsadni to‘g‘ridan-to‘g‘ri bayon etish maqsadga muvofiq bo‘lmaydi. Xususan, suhbatdoshni harakatga undovchi nutqiy aktlarning voqelanishida mazkur qoidaga keng amal qilinadi. Chunki unda muloqot maqsadi ko‘pincha zohiran ifoda etiladi. Bu turdagi nutqiy aktlarning birlamchi vazifasi faoliyatni ijro etmaslikka undashdir. Shu bois

<sup>33</sup> Кебайтули Г. Ўзбек тилида истак гапларнинг семантик-синтактик структураси ва прагматик хусусиятлари: Филол. фан. б. фалс. д-ри (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2021. – Б. 110-111.

ushbu maqsadga erishish ehtimoli soʻzlovchining mahoratiga bogʻliq boʻlib, u bevosita hamda bilvosita voqelanishi holatlarini kuzatish mumkin.

Xullas, yapon va oʻzbek tillarida imperativlik maxsus lisoniy birliklari orqali oshkora (eksplisit) hamda ayrim birliklarning ishorasi orqali yashirin (implisit) tarzda ifodalanadi.

Ikkinchi bobning uchinchi faslida **“Yapon va oʻzbek maqollarida imperativlikning voqelanish usullari”** haqida bahs yuritilgan. Imperativ semantikaga ega boʻlgan maqollar buyruq maʼnoda voqelanishi bilan alohida ahamiyatga ega boʻlib, tinglovchining harakat yoʻnalishini belgilash va uning hissiy holatlariga faol taʼsir oʻtkazish bilan xarakterlanadigan direktiv nutqiy akti tushunarli va sodda tilda namoyon etuvchi vosita sifatida ham tavsiflanadi. Shuningdek, bu turdagi maqollar oshkora (eksplisit) tarzda ifodalangan imperativ nutqning xushmuomalalik stereotipi sifatida ham qoʻllaniladi va bu holatda buyruq ohangi yumshatiladi.

Suhbatdoshni harakat ijrosini amalga oshirishga undashda soʻzlovchi tinglovchiga maʼlum lisoniy, nutqiy taʼsir koʻrsatishni maqsad qiladi va bunda illokutiv kuch tinglovchi tomonidan muammolarsiz qabul qilinadi<sup>34</sup>. Bunday konstruksiyalarda nutq qaratilgan shaxs gap egasi, yaʼni harakat ijrosini bajaruvchi shaxs sifatida nomi tilga olinib koʻrsatilmaydi. Tilga olingan maqol muloqot muhiti va mavzusiga mosligi bilan harakatga undalayotgan shaxs tinglovchi ekanligiga ishora qiladi. Bunday vaziyatlarda nutqda eganing mavhumligi, yaʼni maqol tarkibida adresatning pozitsion mavjud emasligi suhbatdoshlar oʻrtasida anglashilmovchiliklarga sabab boʻla olmaydi. Masalan, yapon tilida:

1. 悪に強ければ善にも強し。

*Yomonlikka kuchli boʻlsang, yaxshilikka ham kuchlisan.*

2. 言いたい事は明日言え。(暮らしの中のことわざ辞典, 16, 42).

*Aytar gapingni ertaga ayt. (Aytar gapingni oʻylab ayt).*

Oʻzbek tilida:

1. *Umidingni uzma, koʻnglingni buzma.*

2. *Umidsizlik uyin buzsang, umidingga yetarsan.* (Oʻzbek xalq maqollari, 299, 300).

Tadqiqotimizda yapon imperativ maqollari va ularning oʻzbek tilidagi muqobil variantlarini nutqiy aktlar boʻyicha tasniflashga hamda ularning ehtimoliy koʻrsatkichini aniqlashga harakat qildik. Ushbu maqsadda saralab olingan yapon va oʻzbek imperativ maqollari soni **883tani** tashkil qilib, maqollar roʻyxati dissertatsiya yakunida ilova qilingan. Bunda J.Serl nazariyasiga koʻra guruhlangan direktiv nutqiy harakatlar koʻrsatkichlariga tayanishni joiz topdik. Jumladan, yapon tilida saralab olingan imperativ maqollarning taxminiy soni **261** tani tashkil etib, ular quyidagicha tahlil qilindi: ogohlantirish: 34 % (88 ta); buyruq: 32 % (83 ta); taklif yoki tavsiya: 25 % (65 ta); maslahat: 9% (25 ta).

Shu oʻrinda, oʻzbek tilida saralab olingan imperativ maqollarning taxminiy soni **622** tani tashkil etib, ular quyidagicha tahlil qilindi: ogohlantirish: 33 % (208 ta);

<sup>34</sup> Беляева Е.И. Грамматика и прагматика побуждение: английский язык. – Воронеж: Изд-во ВГУ, 1992. – С. 25.

buyruq: 21 % (129 ta); taklif yoki tavsiya: 19 % (115 ta); maslahat: 16 % (102 ta); o‘tinch yoki istak: 11% (68 ta).

Dissertatsiyaning “**Imperativ maqollarning semantik-sintaktik strukturasi**” deb nomlangan uchinchi bobida maqollarda invariant va variantlikning namoyon bo‘lishi, imperativ mazmunning ifodalanishi, imperativ maqollarning sintaktik strukturasi hamda fe‘l komponentli imperativ ma’noga ega bo‘lmagan maqollarning semantik-struktur xususiyatlari tahlilga tortilgan.

Bobning birinchi faslida “**Maqollarda invariant va variantlikning namoyon bo‘lishi**” masalasiga diqqat qaratilgan. Bizning nazarimizda, variantlik til tizimi va tilning barcha birliklari faoliyatining asosiy xususiyatidir. Til tizimi invariantdir, uning hududiy va ijtimoiy dialektlari, quyi tizimlari variantlardir.

Maqollardan foydalanish joiz bo‘lgan kontekst xilma-xillikka ega bo‘lishi va bir turdagi ibora turli xil variantlardan tashkil topgan bo‘lishi mumkin. Ushbu holat maqolning qanday vaziyatda va qanday sharoitda voqelanishi bilan aloqador bo‘lgan jarayondir. Ko‘plab variantlar uchun semantik yadro vazifasini bajaruvchi invariantni belgilashda asosiy xususiyat sifatida semantik birlikka e’tibor qaratilishi muhimdir. Mutlaq ma’nodosh va hech qanday tafovutga ega bo‘lmagan mavzuga oid maqollar tubdan farq qiluvchi ko‘rinishda voqelanishi ham mumkin. Ushbu holatda ulardan anglashiladigan mazmuni belgilab beradigan belgi sifatida jumla tarkibida ishtirok etuvchi so‘zlarning semantik xususiyatlarini tanlash mumkin. Masalan, yapon tilida:

Invariant: 片屋を貸して母屋を取られる。

Uyning bir qismini ijaraga bersang, asosiy qismini ham tortib olishadi.

Yaxshilikka yomonlik bilan javob qaytarish.

Variant:

1) 軒を貸して母屋を取られる。

Tomning yog‘ochini qarzga bersang, boshpanangni ham olishadi.

Invariant bilan bir xil mazmun ifodalangan.

2) 庇を貸して母屋を取られる

Tomning yog‘ochini qarzga bersang, boshpanangni ham olishadi.

Invariant bilan bir xil mazmun anglashilgan.

Ko‘rinadiki, ushbu maqollarda jumlaning bosh qismi, ya’ni [片屋]/[kataya], [軒]/[noki] hamda [庇]/[hisashi] komponentlari o‘rin almashgan bo‘lsa-da, gap mazmuni semantik jihatdan hech qanday o‘zgarishsiz qolgan.

3) 鉦を貸して山を伐られる。

Boltangni qarzga bersang, tog‘dagi tolingni qirqishadi.

Mazkur maqol yuqorida qayd etilgan birinchi va ikkinchi maqollarning ma’nodoshi sifatida funksional va semantik jihatdan variant ko‘rinishida amal qilgan bo‘lsa-da, unda struktur jihatdan chekinishlar kuzatiladi.

Demak, maqollar shaklan mutlaq tafovutga ega bo‘lgan ko‘rinishda voqelanishi mumkin, biroq semantik jihatdan variantlik xususiyatini saqlab qolish imkoniga ega bo‘ladi.

Endi bevosita o‘zbek xalq maqollarini tahlil qilamiz:

1. Invariant: *Vatanning vayronasi – umrning g‘amxonasi.*

Variant: *Vatanning vayronasi – umrning hayronasi.*

2. Invariant: *Kishi yerida sulton bo'lguncha, o'z elingda cho'pon bo'l.*

Variant:

1) *Kishi yurtida sulton bo'lguncha, o'z yurtida ulton bo'l.*

2) *Kishi yurtida shoh bo'lguncha, o'z yurtida gado bo'l.*

Yuqorida qayd etilgan birinchi misolda invariant holatdagi “g'amxonasi” so'zi variant holatda “hayronasi” bilan o'rin almashgan holda komponentlar almashinuvi kuzatiladi. Ikkinchi misolda esa gapning birinchi qismidagi “sulton” so'zi “shoh”ga, ikkinchi qismidagi “cho'pon” so'zi esa “ulton” va “gado” so'zlari bilan o'zaro joy almashganini ko'rish mumkin. Ammo bu jarayonning maqollarda pragmatik ma'no ko'chishidagi buzilishlarga sabab bo'la olmaganligini alohida ta'kidlash lozim.

Demak, yuqorida tahlilga tortilgan maqollar har ikkala tilda ham harakatga undash xususiyatiga ega. Ularda asosiy urg'u so'zlar almashinuvi bilan emas, balki asosiy mantiqni yaxlit holda ochib berish bilan xarakterlanadi.

Xullas, so'zlovchi o'z manfaati uchun suhbatdoshni ma'lum bir harakat ijrosini amalga oshirishga undashi yoki uni taqiqlashi, buyruq berishi hamda majburlashi kabi munosabatlar har qanday vaziyatda ham adresatga nisbatan noqulayliklarni keltirib chiqarishi va muloqot samarasizligiga turtki bo'lishi tabiiy. Shu kabi imperativlik bilan aloqador ayrim nozik vaziyatlarda maqollarga murojaat qilish ham oqilona yechim topish usullaridan biri hisoblanadi.

Uchinchi bobning “*Maqollarda imperativ mazmunning ifodalanishi*” deb atalgan ikkinchi faslida maqollarning semantik xususiyatlari ochib berilgan. Maqollar – xalq og'zaki ijodining muhim janrlaridan biri bo'lib, o'git, pand-nasihat, kishilarning hayotiy tajribalarini qisqa, mazmunli va obrazli shaklda ifodalovchi iboralardan tarkib topadi. Shu nuqtayi nazardan maqollarni quyidagi bir necha turlarga bo'lish mumkin<sup>35</sup>. Tadqiqotda tahlilga olingan maqollarning asosiy turlarini quyidagicha ko'rsatish mumkin:

**1. Aqliy-ma'naviy (axloqiy) maqollar.** Bu guruhga jamiyatda ezgu fazilatlarni targ'ib qilish mazmunidagi maqollar kiradi. Ularda halollik, mehnatsevarlik, sabr-toqat, do'stlik, mehr-oqibat kabi fazilatlar ifodalanadi.

Yapon tilida: 七転び八起き。

Yetti marta yiqil, sakkiz marta tur.

O'zbek tilida: *Yetti o'lchab, bir kes.*

**2. Ijtimoiy hayotga oid maqollar.** Jamiyatda tartib-intizom va kundalik turmush hodisalariga qaratilgan maqollarni o'z ichiga oladi.

Yapon tilida: 出る杭は打たれる。

Tashqariga chiqqan mix uriladi.

O'zbek tilida: *El bor joyda – yo'l bor.*

Keltirilgan maqollarni quyidagicha izohlash mumkin: Jamiyatda boshqalardan ajralib chiqqan odam tanqidga uchraydi. O'zini ko'rsatish har doim ham ijobiy qabul qilinmaydi.

<sup>35</sup> ziyonet.uz: [kitob.uz](http://kitob.uz); [lex.uz](http://lex.uz); Дмитриева О.А. Культурно-языковые характеристики пословиц и афоризмов на материале французского и русского языков: Дисс.... канд. филол. наук. – Волгоград, 1997. – 189 с.

**3. Mehnat va hunarga oid maqollar.** Bu guruhdagi maqollarda mehnat, kasb-hunarning qadri va o‘rni tarannum etiladi.

Yapon tilida: *働かざる者食うべからず。*

*Ishlamagan kishi yeyishga haqli emas.*

O‘zbek tilida: *Hunarsiz kishi – qunarsiz kishidir.*

**4. Ilm va ta’limga oid maqollar.** Ilm olish, ustozga hurmat, bilimning ahamiyati ko‘rsatiladi.

Yapon tilida: *学問は一生の宝。*

*Ilm – bir umrlik xazina.*

O‘zbek tilida: *Ilm – nur, jaholat – zulmat. Ustoz – otangdek ulug‘.*

**5. Oilaviy munosabatlarga oid maqollar.** Bu guruhga ota-ona, farzand, aka-uka, turmush qurish, mehr-muhabbat mavzularidagi maqollar kiradi.

Yapon tilida: *親の心子知らず。*

*Ota-ona qalbini farzand bilmaydi.*

O‘zbek tilida: *Uy – boshpanang, ayol – rohat-farang.*

**6. Tabiat va hayvonotga oid maqollar.** Mazkur guruh tabiat hodisalari, hayvonlar xatti-harakatiga asoslangan obrazli maqollarni o‘z ichiga oladi.

Yapon tilida: *猿も木から落ちる。*

*Maymun ham daraxtdan yiqiladi.*

O‘zbek tilida: *Yomg‘ir yog‘sa – yer quvnar, duo qilinsa – el quvnar.*

*Ot – erkakning qanoti.*

**7. Hazil va kulgi (kinoya) aralash maqollar.** Mazax, hazil, kinoya qilish orqali xalqni ezgulikka chorlash maqsadida yaratilgan maqollar.

Yapon tilida: *蛇の道は蛇。*

*Ilonning yo‘li – ilon.*

O‘zbek tilida: *O‘g‘ri o‘g‘rini ushlaydi, ammo ko‘rsatmaydi.*

Yapon lisoniy hamjamiyatida oddiy bir so‘z yoki kichik bir jumla suhbatdoshlar munosabatini ijobiy yoki salbiy tomonga hal qilishi mumkinligi bois, so‘zlarni diqqat bilan tanlash talab etiladi. Bu o‘z navbatida, ta’lim va tarbiya jarayoni bilan aloqadordir. Shu o‘rinda imperativ maqollarning ta’lim va tarbiya jarayonida muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlash lozim.

Muloqot etikasi bilan bog‘liq nozik munosabatlar jarayonida har qanday jumalarni ifodalashdagi oshkoralik, tabiiyki, tinglovchining ongida tushkunlik kayfiyatini uyg‘otadi. Ushbu holatda imperativ maqollar va yashirin nutqiy aktlar vositasida muloqot estetikasini sayqallashtirish o‘rinlidir. Fikrimizni dalillash maqsadida quyidagi misollarni keltiramiz:

Yapon tilida:

*可愛い子には旅をさせよ。(暮らしの中のことわざ辞典, 130).*

*Yoqimtoy bolaga sayohat qildir.*

Mazkur maqolda yoqimtoy farzand bo‘lsa, uni ota-ona bag‘rida erkalatgandan ko‘ra, sayohat qildirib, dunyoning g‘ami va azobini boshdan kechirishga imkon ber, degan ma’no mavjud. O‘zbek tilida ham bola tarbiyasi bilan bog‘liq quyidagi maqollarni keltirish mumkin:

*Bolani yoshidan tiy, xotinni – boshidan*

*Bolani yoshdan asra, niholni boshdan asra*

*Daraxtdan meva olaman desang, niholligidan parvarish qil.*

Qayd etilgan maqollarda “bolani yoshligidan tarbiya qila boshlash zaruzligi, aks holda tarbiya ta’sir qilmay qolshi ko’rsatilgan”<sup>36</sup>. Ko’rinadiki, har ikkala tildagi misollarda imperativ shakl bevosita qo’llanilgan.

Uchinchi bobning **“Imperativ maqollarning sintaktik strukturasi”** deb nomlangan uchinchi faslida imperativ maqollarning strukturaviy tuzilishi yoritilgan.

L. Gutovanning ta’kidlashicha, imperativ maqollar struktur jihatdan sodda va murakkab maqollarga bo’linadi. Sodda tarkibli maqollar faqat buyruq gapni o’z ichiga olgan holda namoyon bo’lsa, ikkinchisi parallel konstruksiyaga ega bo’ladi<sup>37</sup>. L Gutovanning mazkur fikrini quyidagi misollar asosida quvvatlash mumkin:

**Sodda imperativ maqollar.** Yapon tilida:

習うより慣れろ。(暮らしの中のことわざ辞典, 354).

*O’rganishdan ko’ra ko’nikish afzal.*

秋の茄子は嫁に食わずな。(暮らしの中のことわざ辞典, 11).

*Kuzgi baqlajonni keliningga yedirma.*

Ushbu maqolni ikki xil talqin qilish mumkin: 1) Kuzgi baqlajon mazali bo’lsa-da, zaharli alkaloidlarni o’z ichiga oladi va sharq tabobatida baqlajon tanani sovutuvchi oziq-ovqat sifatida tasniflanadi. Shu nuqtayi nazardan, bunday mahsulotni ardoqli kelinlarga yedirmagan ma’qul. 2) Kelinni kamsitish yoki unga yaxshiliklarni ravo ko’rmaslik kabi salbiy mazmun ifodalangan.

O’zbek tilida:

*Sukutda hikmat ko’p.*

*Kuzgi qatiqni kuyovinga berma.*

Ko’rinadiki, ushbu maqollar yapon tilida ham o’zbek tilida ham qisqa jumalardan iborat bo’lib, ikkalasi ham ikkinchi shaxs birlikda ifodalangan imperativlikdan iboratdir.

**Murakkab imperativ maqollar.** Yapon tilida:

人には添うてみよ馬には乗ってみよ。(暮らしの中のことわざ辞典, 417).

*Insonga ergashib ko’r, otga minib ko’r.*

Inson bilan munosabatda bo’l, yaxshi-yomonligini farqlaysan. Otga minib ko’r, qandayligini bilasan. Ya’ni holatni amalda boshdan kechirishga da’vat.

人の振りみてわが振り直せ。(暮らしの中のことわざ辞典, 421).

*Kishi harakatini kuzat va o’zingning hulqingni tuzat.*

Begonaning xatti-harakatlarini ko’rib, nojo’yalikni his etsang, o’zingga boq va kamchiliklaringni bartaraf et.

O’zbek tilida:

*Bosar izing ko’rib bos, orqa-olding bilib bos.*

<sup>36</sup> Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Хикматнома. – Тошкент: Совет Ўзбек Энциклопедияси Бош редакцияси, 1990. – Б. 60.

<sup>37</sup> Гутова Л.А. Адыгские пословицы и поговорки: ситуативный контекст функционирования. – Нальчик: Полиграфсервис, 2006. – С. 18.

*Pichoqni avval o‘zingga ur, og‘rimasa-birovga ur.* (O‘zbek xalq maqollari, 45, 394, 435).

Keltirilgan maqollar ikkita parallel mushtarak qurilmaga ega bo‘lib, ularning har birida harakatga undovchi unsurlar ko‘zga tashlanadi. Xususan, imperativlik yapon tilida 「～ない」[nai], 「～な」[na], 「～て」[te], 「～よ」[yo], 「～せ」[se], 「～れ」[re] kabi grammatik qo‘shimchalar vositasida voqelangan bo‘lsa, o‘zbek tilida “bos”, “ur” kabi buyruq maylidagi fe’llardan tarkib topgan.

Yapon va o‘zbek maqollari to‘plangan lug‘at va boshqa ishlarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, harakatni bajarmaslikka undovchi maqollarning aksariyat qismi “fe’l+negativ” ya’ni “...ni bajarmaslik” tarzida aks ettirilgan. Masalan, yapon tilida:

新しい医者と新しい墓へは行くな。(暮らしの中のことわざ:28)

*Tajribasiz tabib bilan yangi qabrga borma.*

O‘zbek tilida:

*Olmaning qiziliga ishonma,*

*Dushmanning – do‘stligiga.* (O‘zbek xalq maqollari, 2005:433).

Bobning to‘rtinchi fasli “**Fe’l komponentli imperativ ma’noga ega bo‘lmagan maqollarning semantik-struktur xususiyatlari**” deb ataladi.

Yashirin (implisit) imperativlar, odatda, imperativ shaklga ega bo‘lmagan, biroq o‘zida imperativ mazmuni to‘laligicha saqlab qolgan konstruksiyalar asosida ifodalanadi. Yapon muloqot matnida buyruq mazmunidagi jumlar turlicha ko‘rinishda ifoda topadi. Masalan, jumlada yakuniy asos, vaziyatga qarab, buyruq yoki taqiq fe’l bilan imperativ bo‘lmagan shaklda ifodalanishi holatlari ham kuzatilishi mumkin. Bunday jumalarni to‘laligicha rasmiy holatda buyruq emas, balki mazmunan imperativlikka ishora qiluvchi jumlar deyishimiz mumkin.

Yapon tilida harakat yoki holatning inkorini bildiruvchi yordamchi fe’llarga, asosan, 「ない」[nai], 「ぬ(ん)」[nu (n)] va 「ず」[zu] kabi suffikslar kiradi. Bular orasida eng faol va ommabopi 「ない」[nai] suffiksi ishtirokida yasalgan jumladir. 「ない」 nutqdagi vazifasiga ko‘ra hamda semantik jihatdan o‘zbek tili bilan muqobildir. Shunday unsurlardan yana biri 「ぬ」[nu] yoki 「ん」[n] qadimgi yapon tilida yuqorida zikr qilingan 「ない」 unsurining varianti sifatida keng amal qilingan bo‘lsa-da, hozirgi kunda ko‘pincha, maqol va idiomatik birliklarda ko‘rinish beradi. Fikrimizni quyidagi yapon va o‘zbek tillaridagi maqollar misolida quvvatlashga harakat qilamiz:

1. 蒔かぬ種は生えぬ。(暮らしの中のことわざ辞典, 456).

*Ekilmagan urug‘ nish otmas (o‘smas).*

Mazkur maqolning o‘zbekcha talqini sifatida quyidagi maqollarga murojaat etish mumkin:

*Jon koyitmay, ish bitmas.* Yoki:

*Jon kuydirmasang, jonona qayda,*

*Toqqa chiqmasang, do‘lona qayda.* (O‘zbek xalq maqollari, 27)

2. 鳴く猫は鼠を捕らぬ。(暮らしの中のことわざ辞典, 347).

*Miyovlaydigan mushuk sichqon tutmas.*

Keltirilgan yapon maqolining o‘zbek tilida bir qator ma’nodoshlarini sanab o‘tish mumkin. Garchi, o‘zbek tilidagi maqollarda yapon maqolaridagi inkor shakli va mazmunini ifodalovchi xususiyat kuzatilmasa-da, ulardan anglashiladigan ma’no imperativlikka yo‘naltirilganligiga shubha yo‘q:

a) inkor shaklga ega: *Gap bilan osh pishmas.*

b) inkor shaklga ega emas: *Gap bilguncha, ish bil.*

齒に衣着せぬ。(暮らしの中のことわざ辞典, 401).

*Tishga libos kiydirma.*

Ko‘rinadiki, [ぬ]/[nu] suffiksi taqiq imperativlikni hosil qiluvchi unsur sifatida ishtirok etayotgan ushbu maqolning bir nechta o‘zbekcha muqobiliga murojaat qilish mumkin. Ularning ayrimlarida bir vaqtning o‘zida ham taqiq ham ijozat mazmundagi imperativlik faol bo‘lsa, yana boshqalarida bunday holatni umuman uchratmaslik ham mumkin. Ammo har ikkala tilda ham maqollardan anglashiladigan nutq intentsiyasi yashirin tarzda yaqinlikka egadir:

1. *Rost so‘zni ayt, yolg‘on so‘zdan qayt.*

2. *Zarhal ko‘rinar soxta, rosa bilib, so‘ng maqta.*

3. *Boshingga qilich kelsa ham, to‘g‘ri so‘zla.*

4. *Xushomad so‘zlagan til, yalab-yalab yara etar.* (imperativlik mavjud emas)

(O‘zbek xalq maqollari, 326-327).

Maqollarning semantikasi o‘xshash grammatik model bo‘yicha tuzilgan oddiy gaplar semantikasidan farqlanishini ta’kidlash zarur. Imperativ mazmunga ega bo‘lgan nutq, asosan, harakatga undashga xizmat qilib, ular aniq shaxs (ikkinchi shaxs)ga qaratilgan bo‘ladi va kelasi zamondagi voqeTaqriz-2ani tasvirlash uchun ishlatiladi. Imperativ maqollarda esa kontekstsiz umumbashariy ma’no mavjud bo‘lib, u zamonaviy murojaat va umumlashgan shaxsiy xususiyatga ega.

Dissertatsiyaning **“Imperativ maqollarning pragmatik va lingvomadaniy xususiyatlari”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida yapon va o‘zbek maqollarida imperativlikning voqelanish vaziyatlari, buyruq mazmunidagi maqollarni kontekstda faollashtiruvchi unsurlar, imperativ maqollar vositasida yapon va o‘zbek milliy xarakterining ifodalanishi hamda yapon tilidagi maqollarni o‘zbek tilida muqobillashtirishda tayaniladigan omillar tavsiflangan.

Bobning birinchi fasli **“Yapon va o‘zbek maqollarida imperativlikning voqelanish vaziyatlari”** deb atalgan.

Buyruqning illokutiv kuch ta’siri ko‘lami asosida yapon tilidagi maqollarni uch guruhga bo‘lib tasniflash mumkin:

1) majburiyatni ifodalovchi maqollar;

2) pand-nasihati va o‘g‘it mazmunidagi maqollar;

3) o‘xshatish va qiyoslash mazmunidagi maqollar.

Birinchi guruh, ya’ni majburiyatni ifodalovchi maqollar suhbatdoshni bevosita ma’lum bir harakat ijrosini ta’minlashga undaydi va bu holatda nutq mazmuni taqiq (proxibitiv) yoki ijozat (permissiv) ohangda ifodalanishi mumkin. Masalan:

門に入らば帽子を脱げ。(暮らしの中のことわざ辞典 : 491)

*Eshikdan kirdingmi, bosh kiyimingni yech.*

O‘zga uyga (yurt, guruh) bordingmi, uning talabiga amal qil va o‘z tartibingni o‘rnatishga harakat qilma.

Ikkinchi guruh, ya’ni pand-nasihat va o‘git mazmunidagi maqollar suhbatdoshni bevosita ma’lum bir harakat ijrosini ta’minlashga majbur qilmaydi va bunga amal qilish tinglovchi ixtiyorida bo‘ladi. Shu sababdan bu turdagi maqollar muloqot mazmunidan kelib chiqqan holda, pand-nasihat, maslahat yoki o‘git sifatida qabul qilinadi:

極楽願うより地獄作るな。(暮らしの中のことわざ辞典：152)

*Jannatni so‘rashdan ko‘ra, do‘zaxni yaratma.*

Bu maqol bilan jannatni orzu qilishdan ko‘ra, do‘zaxga olib boradigan yomon ishlardan qochishga harakat qilish kerakligi uqtirilmoqda. Ya’ni, “yaxshilik kelishini kutsang, yomonlik qilma” degan o‘git ifodalangan.

Uchinchi guruhga oid o‘xshatish va qiyoslash mazmunidagi maqollar tarkibida imperativ fe‘l shakllari mavjud bo‘lmasa-da, kishiga ma’lum bir ma’noda nasihat berish maqsadi voqelanadi. Bunday maqollar, asosan, jamiyatda kishilarning odo axloqqa zid bo‘lgan harakatlari, liboslari va tashqi ko‘rinishlari taqiq ostiga olinganida va ularni g‘ayrioddiy holatlar bilan qiyoslaganda keng qo‘llaniladi:

桜は七日。(暮らしの中のことわざ辞典：197)

*Sakura yetti kunlik.*

Mazkur maqolda sakura gullari qancha chiroyli bo‘lmasin, yetti kunda tugashi bayon qilinib, majoziy inson umrining qisqaligiga qiyoslanilgan.

Maqollar shaklan imperativlikka ega bo‘lmasa ham, dastlab odamlarning donoligi va hayotiy tajribasini to‘plaganligi sababli, tarbiyalash xususiyatiga ega va ularda tinglovchini ma’lum bir harakatga undovchi xususiyat mavjudligi sezilib turadi. Ushbu holat kontekstual muhit maydonida keng voqelanish holatlari ko‘p kuzatiladi. Misol uchun, imperativlik xususiyatiga ega bo‘lmagan quyidagi maqollarga e’tibor qaratamiz:

Yapon tilida: 鬼に金棒。

*Shaytonga temir tayoq.*

Shayton kuchga va har qanday yovuzlikni amalga oshirishga qodir bo‘lgan jins sifatida ma’lum. Unga temirdan tayoq berilsa, u yanada kuchliroq bo‘lgani kabi, inson kuchiga kuch beruvchi harakatni amalga oshirishga undashga ishoradir.

O‘zbek tilida: *Hisoblashgan do‘st emas.*

Maqol orqali kishilarni arzimas xizmatlarini do‘stiga minnat qilishdan qaytishga undashga urg‘u berilmoqda.

Har ikkala misolda ham grammatik jihatdan imperativlik mavjud emas, lekin ushbu iboralar nutq intentsiyasi shunchaki fikrni bayon qilish bilan chegaralanib qolmasligiga shubha yo‘q. Ularda nutq intentsiyasi, odatda, buyruq yoki imperativlikka ishora qilishga qaratilishi mumkin. Demak, maqollarda grammatik shaklidan qat’i nazar, ma’lum miqdorda buyruq mazmun mavjud. Ushbu shaklning o‘zi nutqning ta’sir darajasini oshirish uchun mo‘ljallangan imperativ maqollar tarkibida fe‘l ko‘pincha buyruq maylida qo‘llanadi.

To‘rtinchi bobning ikkinchi faslida **“Buyruq mazmunidagi maqollarni kontekstda faollashtiruvchi unsurlar”** haqida fikr-mulohazalar bildirilgan.

Imperativ maqollar tarkibida odatda buyruq-istak mazmuni faol bo‘lib, fe’ning imperativ shakli permissiv yoki proxibitiv mazmundagi grammatik konstruksiyalar asosida ifodalanadi. Shuningdek, bu turdagi maqollarda harakat ijrosini ta’minlovchi adresatning kim ekanligi hamda ishora qilinayotgan harakatni amalga oshirilish haqida ma’lum bir muddat konkret belgilanmaydi. Kundalik muloqot matnida qo‘llaniladigan imperativ jumlar ko‘pincha suhbatdoshning harakat yo‘nalishini belgilab beruvchi yoki uning bajarish vaqtiga va shaxsiga ishora qilishga qaratilgan omillar konkret elementlar asosida taqdim etilsa, bu turdagi maqollar tarkibida esa nutq tinglovchisi o‘ziga yuklatilayotgan harakat haqidagi tasvirlarga tayanadi. Ushbu holat qiyoslanayotgan ikkala til, ya’ni yapon va o‘zbek tili me’yorlariga muvofiq bo‘lib, quyidagi misollarga e’tibor qaratamiz:

Imperativ gap: *Oyim sut hidi anqib turgan qo‘llari bilan peshonamni siladi.*

- **Qo‘yaver, o‘g‘lim.** *Ba‘zan shunaqasi ham bo‘p turadi. – U bir zum jimib qoldi-da, sekin qo‘shib qo‘ydi:*

- *Faqat o‘zing bunaqa qilmagin, xo‘pmi?* (O‘. Hoshimov. “Dunyoning ishlari”).

Imperativ maqol:

*Dardingning vaqti o‘tsa,*

*Tabibdan o‘pkalama.* (O‘zbek xalq maqollari, 404).

Birinchi misolda nutq tinglovchisi va harakat ijrosini bajaruvchi shaxs, ya’ni adresat sifatida ayolning o‘g‘li ko‘rsatilgan. Ayolning nazarida uning farzandi hoziroq havotirni tark etishi hamda bunday harakatdan chetlanishiga ishora qilinganligi konkret ifodalangan. Shu o‘rinda yapon tilidagi misolni tahlilga tortamiz:

Imperativ gap:

「本当に大事にして御上げなさい」と奥さんも言った。

「毒が脳に廻るようになると、もうそれっきりよ、あなた。笑いことじゃないわ。」

(夏目漱石「こころ」: 105)

- “*Haqiqatan ham, sen g‘amxo‘rlik qil*”, dedi xotini ham.

- “*Zahar miyaga kirsam, bo‘ldi tamomsan sen, kuladigan narsa emas (kulma)*”.

Imperativ maqol:

善は急げ悪は延べよ。

*Yaxshilikni shoshiltir, yomonlikni kechiktir.*

Yuqoridagi misollardan ma’lumki, oddiy buyruq gaplar tarkibida nutq ijrochisi va nutq yo‘naltirilgan shaxsning o‘rni mavjud bo‘lib, bunda ikkala ishtirokchi munosabatiga ko‘ra tinglovchi talab etilayotgan harakat ijrosini ta’minlovchi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq imperativ mazmunga ega bo‘lgan maqollar shakl jihatdan fe’ning buyruq shakli bilan yakun topgan bo‘lsa-da, muloqot matnidan anglashiladigan nutq intensiyasiga ko‘ra tipik qolipdan chetga chiqadi va buyruq gap bilan tafovutlanadi.

Qayd etilganlar bilan birga, muloqot matnida yuzaga keladigan buyruq mazmunidagi gaplarda yoki suhbatdoshni harakatga undovchi nutq so‘zlovchining xohish istagiga ko‘ra yuzaga kelsa, imperativ maqollarda esa nutq ijrochisi bunday imkoniyatga ega bo‘lmaydi. Masalan, 「今日考えて明日語れ。」 *Bugun o‘yla, ertan so‘yla* maqolida nutq intensiyasi kishini g‘azablantirgan yoki turli xil his-tuyg‘ularga duch

kelgan vaziyatlarda tasavvurida paydo bo'lgan noqobil jumalarni qo'llashga xushyor bo'lishga va ular haqida bugun chuqur tahlil qilib, joiz bo'lsa, keyingi kun ifoda etishga hamda bugungi qaltis vaziyat ertaga ijobiy tomonga o'zgarishi mumkinligiga umid bog'lashga undaydi. Tabiiyki, ushbu jumlaning muallifi so'zlovchining o'zi emas, balki ajdodlar tomonidan in'om etilgan ma'lum qadriyatlar to'plamini ifodalovchi iboralardir.

To'rtinchi bobning *“Imperativ maqollar vositasida yapon va o'zbek milliy xarakterining ifodalanishi”* deb nomlangan uchinchi faslida yapon va o'zbek xalqlarining madaniyati, turmush tarzi, milliy qadriyatlari, mentaliteti, xulq-atvori hamda ularning turli ijtimoiy hodisalar haqidagi fikrlarini aks ettirgan maqollar tahlilga tortildi.

Yapon muloqotiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, matbuotda uzatiladigan xabarlar yoki ob-havo bashoratlari, shuningdek, televizion animatsiyalarida nutq tasdig'i yoki bezagi sifatida so'zlovchi tomonidan mahorat bilan maqollarga murojaat qilingan holatlarga duch kelishimiz mumkin. Chunonchi, yapon tili tabiat hodisalariga oid maqollarning ko'pligi bilan tavsiflanadi. Quyidagi maqollar tahlili asosida yapon xalqining falsafiy dunyoqarashi va xarakterli xususiyatlarini oydinlashtirishga harakat qilamiz:

「暑さ寒さも彼岸まで。」(暮らしの中のことわざ辞典, 29).

*Issiqlik va sovuqlik tengkunlikka qadar.*

Qishning uzoqqa cho'zilgan izg'irini bahorgi tengkunlik kuni (taxminan 20-mart)dan pasayadi, yozning uzoqqa cho'zilgan jaziramasi esa kuzgi tengkunlik (taxminan 20-sentyabr)dan yengillashadi. Ushbu maqol orqali vaziyat qanchalik og'ir bo'lmasin, u oxir-oqibat poyoniga yetadi va uni yengib o'tish imkoni paydo bo'ladi, degan ma'noga ishora qilingan holda kishilarni sabr-toqat va hayot zarbalariga taslim bo'lmaslikka undovchi imperativ mazmun oydinlashgan.

Ma'lumki, Yaponiya yaqinidagi yirik atmosfera oqimlari G'arbdan Sharqqa qarab yo'naladi va havo G'arbdan Sharqqa qarab o'zgarib boradi. Buni quyidagi maqollarda kuzatish mumkin:

「朝焼けは雨夕焼けは晴れ<sup>38</sup>。」

*Tong shafaqi yomg'irdan darak, shom shafaqi oftobdan darak.*

Tongda Sharqda osmon qizil tusga kirsak, yomg'ir yog'adi, G'arbda quyosh botayotganida paydo bo'ladigan qizil shafaq esa ertasi kun tongda odatda quyoshli bo'lishi ehtimoli yuqoriligidan darak beradi. Binobarin, maqol ertangi kunda Yaponiya osmoni quyoshli bo'lishiga ishora qiladi.

「塵も積もれば山となる。」(暮らしの中のことわざ辞典:298).

*Chang ham yig'ilib, tog'ga aylanadi.*

O'zbek tilida:

*Birin-birin ming bo'lar,*

*Toma-toma ko'l bo'lar.*

Yapon va o'zbek xalqlarining milliy-madaniy xususiyatlarini yoritib berishda milliylikka xos so'zlar ishtirok etgan maqollar alohida ahamiyat kasb etadi. Binobarin,

<sup>38</sup> <http://www7a.biglobe.ne.jp>

yapon madaniyatida sake kishini sarxush qilish xususiyatiga ega bo‘lgan milliy ichimlik hisoblanadi. Undan bir piyola iste‘mol qilgan kishi o‘zini yaxshi nazorat qila oladi, lekin ikkinchi piyoladan keyin kishida tartibsizlik boshlanadi. Vanihoyat, uchinchi piyolada sake kishi tanasini to‘liq egallab oladi va u o‘zini nazorat qilolmasdan, ko‘ngilsiz hodisalarni keltirib chiqaradi. Sake ichimligining bu xususiyati quyidagi maqolda aks ettirilib, maqol orqali kishilarning me‘yorga amal qilishlari bayon qilinmoqda:

一杯は人酒を飲む、二杯は酒酒を飲む、三杯は酒人を飲む<sup>39</sup>。

*Birinchi piyolada kishi Sake ichadi, ikkinchisida Sake Sakeni ichadi, uchinchisida esa Sake odamni ichadi.*

O‘zbek tilida:

*Nafsi buzuq hayitda o‘lar, dini buzuq – masjidda<sup>40</sup>.*

Yapon va o‘zbek tillarida har ikki xalqning diniy e‘tiqodi ta‘sirida paydo bo‘lgan maqollar ham uchraydi. Masalan, yapon tilida:

知らぬが仏。

*Bilmaslik – Buddaga teng.*

Biror vaziyat haqida xabardor bo‘lish kishini u haqda tashvishlanishga majbur qiladi. Bilmaslik esa Budda kabi xotirjam bo‘lish bilan barobardir.

O‘zbek tilida:

*Musofir bo‘lmay, musulmon bo‘lmas.*

*Otang ishga buyursa, namozingni buzib ayt.*

Qiyoslanayotgan til egalarining e‘tiqodi tubdan farq qilsa-da, ulardan anglashiladigan maqsad – jamiyat a‘zolarini ezgulikka va e‘tiqodli bo‘lishga da‘vat qilishdir.

Bobning oxirgi – to‘rtinchi fasli **“Yapon tilidagi maqollarni o‘zbek tilida muqobillashtirishda tayaniladigan omillar”** deb nomlanib, unda yapon tilida imperativ mazmunda faollashuvchi maqollarni o‘zbek tiliga tarjima qilishda duch kelinadigan ayrim muammolar va ularning o‘zbek tiliga muqobillashtirish xususida bahs yuritilgan.

O‘zbek va yapon tillarining tabiati, struktur xususiyatlari va grammatik konstruksiyalarning shaklan uyg‘unligi har ikkala tilda ham erkin birikmalarni tarjima qilishda deyarli qiyinchiliklarni keltirib chiqarmaydi. Ammo bu holat ayrim maqollar va iboralarni tarjima qilish jarayonida istisnoliklarga ega. Masalan, yapon tilidagi 「隣の芝生は青い」 “*Qo‘shning maysazori ko‘m-ko‘k*” maqoli o‘zbek tilida *Qo‘shniga qo‘shning tovug‘i ko‘rkli ko‘rinar* maqoliga ma‘no jihatidan muqobil bo‘ladi. Biroq yapon maqolining tarkibida 「見える」[mieru] “*ko‘rinmoq*” fe‘lining uchramasligi yapon tili struktur me‘yorlariga muvofiq bo‘lsa-da, o‘zbek tilida “*ko‘rinmoq*” fe‘lining tushirib qo‘llanilishi maqol mazmunini g‘alizlashtiradi. Bu o‘rinda har ikkala tildagi maqollarda nutq intensiyasi tinglovchini o‘z tasarrufidagi borliqni qadrlashga va baxillikdan tiyilishga undaydi.

<sup>39</sup> <https://imidas.jp/proverb>

<sup>40</sup> <https://n.ziyouz.com>

Odatda, maqollarni muqobillashtirishda ma'noga asoslangan tarjima usuliga tayanish o'zini oqlaydi. Bunda metaforik mazmundan anglashiladigan ma'noni diqqat bilan idrok etgan holda talqin qilish kerak bo'ladi. Masalan, yapon tilidagi 「蛇に噛まれて朽ち繩に怖じる。」*Bir marta ilon chaqqan, chirigan arqondan ham qo'rqar* maqolini o'zbekchaga moslashtirishda *Qaynoq sut ichib og'zi kuygan qatiqni ham puflab ichar* maqoliga muqobil sifatida tayanish mumkin. Agarda bu jarayonda maqol shaklan, ya'ni jumla tarkibidagi har bir unsur so'zma-so'z tarjima qilinsa, matn mazmuniga putur yetadi va nutqdan ko'zlangan maqsad samarasiz yakun topadi.

Yapon maqollarini quyidagi uch tur asosida o'zbekchaga muqobillashtirish mumkin:

1. So'zma-so'z tarjimada aynan bir xil ifodaga ega maqollar:

二兎を追う者は一兎をも得ず。(ミニことわざ辞典, 283).

*Ikki quyonni quvlagan kishi bittasini ham qo'lga kiritolmaydi.*

O'zbekcha talqin:

*Ikki quyonni quvlagan bittasini ham tutolmas*<sup>41</sup>.

2. Ifoda plani farqli, ammo mazmun plani bir xil bo'lgan maqollar:

蛙の子は蛙。(暮らしの中のことわざ辞典:109).

*Qurbaqa bolasi qurbaqadir.*

O'zbekcha talqin:

*Ilonning bolasi ilon, chayonning bolasi chayon.*

3. Har bir xalqning o'ziga xos maqollari:

武士に二言なし。(暮らしの中のことわざ辞典:438).

*Samurayning gapi ikkita bo'lmaydi.*

O'zbekcha talqin:

*Yigit so'zidan, arslon izidan qaytmaydi.*

Bu o'rinda maqol tarkibidagi *Samuray* so'zi boshqa xalq vakillari uchun begona tushunchadir. Demak, bu turdagi maqollarni tarjima qilishda aynan o'sha xalq timsolidagi voqeliklarga tayanib, jumla mazmunini saqlab qolgan holda so'zlarning o'rni muqobildosh mazmunga ega bo'lgan unsurlar bilan almashtirish maqsadga muvofiqdir.

O'zbek xalqiga xos maqollar:

1) *O'ttiz kun ro'zaning bir kun bayrami bor.*

2) *Yirtiq to'nga zar yamoq* (O'zbek xalq maqollari, 98, 177).

Aytilganlar bilan birga, yapon tilidagi maqollar, asosan, ierogliflar yordamida qisqa va to'liq bo'lmagan jumlar ko'rinishida ifodalanadi. Ushbu xususiyat o'zbek tili me'yorlariga mos kelmasligi va bunday jumalarni o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjima qilish gap mazmuniga futur yetkazishi mumkin. Shuning uchun, bu turdagi maqollarni o'zbek tiliga o'g'irishda ekstralingvistik omillar ta'sirida jumla tarkibi stilistik jihatdan o'z qiyofasini o'zgartiradi. Masalan:

耳学問。Quloq ilmi. O'zbek tilida: *Izlanib emas, tinglab o'rgan.*

<sup>41</sup> <https://www.ziyouz.com>

